



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

FEVRAL

№ 74
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 74-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2025 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 87 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
"Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар -

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт -

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Воҳидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт -

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Музыка ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Зупарова Зулфия Аҳрор кизи, Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, DSc (фармацевтика фанлари доктори)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASIMIZDA ADVOKATURA INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI

Xudoyqulova Mehriqul Shoynazar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga alohida yangi bob sifatida qo'shilgan Advokatura institutining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarining yoritilishi va vujudga kelishi asoslari tahlil qilingan. Bundan tashqari Advokatura institutining huquqiy asoslari Konstitutsiyamizning huquqiy normalari bilan aloqadorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Advokatura, yuridik yordam, mustaqillik, o'zini-o'zi boshqarish, litsenziya, fuqarolik jamiyati, fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari.

Inson huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ko'ruvchi har tomonlama rivojlangan huquqiy demokratik davlat barpo etish O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining asosiy mezonini hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashning samarali institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning o'rnini va ahamiyatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buni Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasida ushbu sohani isloh etishga keng urg'u berilgani va o'tgan davrda salmoqli ishlar bajarilgani misolida ham kuzatish mumkin.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, asosan sud-tergov faoliyati davomida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida yuqorida ko'rsatilgan faoliyatlarda advokatning rolini yanada kuchaytirishni nazarda tutadi.

Bu maqsadga erishish uchun esa quyidagilar vazifa qilib qo'yilgan:

- yuridik yordam ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirish;

Ya'ni, Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talablari yetarli darajada amalga oshirilishini ta'minlash.

- nodavlat notariat institut faoliyatini qayta tiklash va faoliyatini keng yo'lga qo'yish, notarial harakatlarning masofadan turib, interaktiv- elektron xizmat ko'rinishidagi faoliyat sohasini kengaytirish[1];

Ayniqsa, "Yuridik yordam" axborot tizimi yaratilganligi va ushbu tizim advokat so'rovini elektron yuborish, elektron tartibda advokat orderini olish, advokatlar, sud, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashish imkonini berayotganligi tahsinga sazovor. Bu o'z navbatida, advokatning shaxsiy kabineti orqali nafaqat jismoniy va yuridik shaxslar, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham yordam bera olishi, shuningdek ularga masofadan turib, onlayn bitimlar tuzish va yuridik yordamdan foydalanish uchun keng imkoniyat hisoblandi.

Ushbu o'rinda advokaturaning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi haqida to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki, 2023-yil O'zbekiston Respublikasi tarixida muhim hisoblanadi. Negaki, ushbu yilda yangi Konstitutsiya qabul qilish to'g'risida umumxalq referendum bo'lib o'tdi. Shuningdek, referendum natijalariga ko'ra, mamlakatimizda yangi tahrirdagi konstitutsiya qabul qilindi. Unga kiritilgan o'zgarishlar orasida eng muhimlaridan biri bu yangi bob, Advokatura bobi, qo'shilganligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga "Advokatura" deb nomlanuvchi alohida bob kiritishdan asosiy maqsad yuqorida aytib o'tganimizdek inson huquq va erkinliklarini yanada samarali ta'minlash, shuningdek advokatlar yordami bilan yangi qonunchilik hujjatlari mazmuni bilan aholini tanishtirish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya



vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarordan ko'zlangan maqsad notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash [2] hisoblanadi.

Ushbu qonunga qaramasdan, "Advokatura" bobining Konstitutsiyamizdan o'rin olganligi nafaqat unga nisbatan talab va ehtiyojlarning yuqoriligidan, balki uning inson hayotida naqadar muhimligi jihatidan ham kelib chiqadi. Advokatura chinakam mustaqil tuzilmaga aylana olishi uchun soha rivojiga to'siq bo'layotgan g'ovlarni olib tashlash, sohaga yangiliklarni olib kirish muhimligi ham uning bosh Qomusimizdan o'rin olishiga bir sabab desak mubolag'a bo'lmaydi. Konstitutsiyamizning 141-moddasiga muvofiq "jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi" deyilgan, ya'ni advokatura – fuqarolik jamiyatining huquqiy maslahatchisi hisoblanadi. Shuningdek, advokatura o'z faoliyatini qonuniylik, mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish prinsiplariga asosan amalga oshiradi. Bu to'g'risida Konstitutsiyamizning 141-moddasida, shuningdek "Advokatura to'g'risida"gi [3] qonunda ham belgilab o'tilgan. Yuqoridagi qonunda esa, Advokat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga nafaqat yangi bob, balki advokatlik faoliyatining ko'inishi sifatida moddasida ham keltirib o'tilgan. Ya'ni, Konstitutsiyamizning 29-moddasiga ko'ra "Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran, o'z tanloviga ko'ra, advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega" - deyilgan. Ammo, eski tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa bunday norma mavjud emas edi. Shuningdek, quyidagi holatlarda ham advokat o'sha ishdan o'z ixtiyoriga ko'ra voz kechishi lozim. Ya'ni, advokat muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o'tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis; jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgarning vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan hollarda, shuningdek, agar ishni dastlabki tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo'lgan mansabdor shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa, xuddi shuningdek, agar advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo'lsa, bu hol unga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas. Ushbu moddaning davomi sifatida esa, "Advokatura" bobiga tegishli 142-moddani olishimiz mumkin: "Advokat o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi". Shu bilan bir qatorda, advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslari va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma'lumotlarni talab qilish taqiqlanadi. Advokat o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda, unga biror-bir shaklda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Bu haqida "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risidagi" [4] qonunda ham keltirib o'tilgan.

Shu o'rinda, 2022 yil 2-5-iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasi Jenevaga tashrifi doirasida "Konstitutsiyaviy islohot: inson qadri va huquqlarini ta'minlash – bosh maqsad" mavzusida xalqaro davra suhbatini o'tkazilganligi ham bejiz emas. O'sha forumda ishtirok etgan BMT Inson huquqlari kengashining Sudyalari va advokatlar mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garisiya-Sayan quyidagi fikrlarni bildirdi:

"Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini hamda advokatlar va sud'yalarning mustaqilligini amalda ta'minlash juda muhimdir. Mamlakatda o'lim jazosi qo'llanmasligi haqidagi normaning Konstitutsiyangizda mustahkamlab qo'yilishini olqishlayman. Albatta, "Xabeas korpus" institutini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilayotgani va shaxslarning mamlakat hududida erkin harakatlanishi kafolatlanayotgani ham nihoyatda ahamiyatlidir. Bosh Qomusingizda tom ma'nodagi huquqiy davlat barpo etishning kafolati bo'lib xizmat qiladigan konstitutsiyaviy normalar qaror topishiga chin dildan ko'makdoshman. Chunki buning natijasida sud'yalar, yanada muhimi, advokatlarning haqiqiy



mustaqilligi so‘zsiz ta’minlanadi” [5].

2023-yil 10-avgustda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3¹-moddasiga o‘zgartirish kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga doir litsenziyani olish uchun imtihon topshirishga talabgor shaxsning yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi talab bekor qilindi. Shuningdek, kelgusida xuddi senator yoki deputatlarning so‘rovlarga javob yo‘llanmagan vaqtlarida javobgarlik belgilanganligi kabi advokatlarning ham so‘rovlariga qonunda belgilangan tartibda javob bermaslik bepisandlik bilan qoldirilmasligi kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo‘lsak, advokatura instituti fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida davlat organiga emas, balki mustaqil tuzilmaga aylana olishi uchun unga yanada keng sharoitlarni yaratish, ushbu sohaga jahon amaliyoti tajribalarini tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi – “O‘zbekiston” Toshkent - 2022 105 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.04.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-sonli qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son
3. Advokatura to‘g‘risidagi 27.12.1996 yildagi 349-I-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-54503>
4. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risidagi 25.12.1998 yildagi 721-I-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son
5. <https://parliament.gov.uz/articles/868#!>



ИҚТИСОДИЙ ЭКСПЕРТИЗАЛАРНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Баракаев Лазизжон Отакулович,
ю.ф.ф.д., Ўзбекистон Республикаси
хуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Тошкент, Ўзбекистон
Телефон: +998909408260
proacademyresearch@yahoo.com

АННОТАЦИЯ: Мақолада иқтисодий экспертизаларнинг моҳияти, турлари ва уларнинг иқтисодий жиноятларни аниқлаш ҳамда тергов қилишдаги аҳамияти ёритилган. Иқтисодий экспертизаларнинг турли олимлар томонидан таклиф этилган таснифлари таҳлил қилинган. Суд-бухгалтерия, молиявий-иқтисодий, солиқ, молиявий-таҳлилий ва молиявий-кредит экспертизаларининг асосий вазифалари ва ўзига хос хусусиятлари очиб берилган. Замонавий шароитда иқтисодий экспертизаларнинг ривожланиш тенденциялари ва долзарб масалалари кўриб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: иқтисодий экспертиза, суд-бухгалтерия экспертизаси, молиявий-иқтисодий экспертиза, солиқ экспертизаси, молиявий-кредит экспертизаси.

Иқтисодий экспертизалар иқтисодий жиноятларни аниқлаш ва тергов қилишда катта аҳамиятга эга. Бу билимлар жиноят ишлари доирасида тергов ва суд органларига тўғри экспертиза турини танлаш, эксперт олдида тўғри саволлар қўйиш ва экспертиза натижаларини тўғри баҳолаш имконини беради.

Олимлар томонидан иқтисодий экспертизаларнинг турли таснифлари илгари сурилган. Биринчи гуруҳ олимлар қуйидаги турларни ажратадилар: суд-бухгалтерия экспертизаси, суд-молия-кредит экспертизаси, суд-меҳнат иқтисоди экспертизаси, ташқи савдо фаолиятининг суд-иқтисодий экспертизаси, суд-режали-иқтисодий экспертизаси ва суд статистика экспертизаси [1, С. 384].

Фикримизча, суд-иқтисодий экспертизанинг турларга бўлиниши иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларни аниқлаш ва уларга қарши курашишда иқтисодий билимлардан самарали фойдаланиш имконини беради. Суд-иқтисодий экспертизаларнинг турли таснифларга бўлиниши тергов ва суд органлари ходимларининг иқтисодий жиноятларни аниқлаш ва очишда уларга янада чуқурроқ кириб бориш имкониятини беради.

В.А.Тимченконинг таснифи бўйича иқтисодий экспертизалар қуйидаги турларга бўлинади: суд-бухгалтерия экспертизаси, суд-баҳолаш экспертизаси, суд-кредит экспертизаси, суд-молиявий экспертизаси ва суд-молиявий-таҳлилий экспертизаси. Бу таснифлаш иқтисодий экспертизаларнинг кенг қамровли турларини ўз ичига олади [2, С. 645].

В.А. Юматов ва С.В. Козменковалар эса қуйидаги таснифни таклиф этадилар: бухгалтерия экспертизаси, молиявий-иқтисодий экспертиза, солиқ экспертизаси, баҳолаш экспертизаси ва режали-иқтисодий экспертиза. Бу таснифлаш экспертизаларнинг предмет соҳасига асосланган [3, С. 224].

Ушбу олимларнинг фикрича, бу таснифлаш экспертизаларнинг предмет соҳасига асосланган бўлиб, ҳар бир тур ўзига хос объектлар ва методик воситаларга эга. Фикримизча, юқоридагича ёндашув ҳам эътиборга лойиқ. Бироқ, уларнинг таснифида молиявий-кредит экспертизаси алоҳида тур сифатида ажратилмаган. Зеро, экспертизанинг ушбу тури алоҳида экспертиза сифатида кўрилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Р.Туримбетов, М.Каландарова ва Н.Қурбонов каби муаллифлар ҳам молия-кредит экспертизасини иқтисодий экспертизаларнинг алоҳида тури сифатида молия-кредит жараёнларини (операцияларини) ўзида акс эттирган ҳужжатларни тадқиқ этиш ҳамда йўл қўйилган қонунбузарлик ҳолатларини аниқлашда ўтказиш зарур эканлигини қайд этишган [4, С. 109]. Дарҳақиқат, иқтисодий муносабатларни амалга оширишда пул маблағлари фондларини шаклланиши ва сарфланиши, кредит маблағлари тақсимланишининг асосли эканлигини текширишда ушбу турдаги экспертизанинг аҳамияти юқори ҳисобланади.

Н.Г.Гаджиев ва бошқа бир гуруҳ олимлар томонидан таклиф этилган таснифга кўра эса,



иқтисодий экспертизаларни қуйидаги турларга бўлиш мумкин: суд-бухгалтерия экспертизаси; суд-солиқ экспертизаси; суд-молиявий-иқтисодий экспертизаси; суд-молиявий-аналитик экспертизаси; суд-молиявий-кредит экспертизаси [5, С. 110]

Бизнингча, ушбу таснифлаш амалиётда қўлланиладиган асосий иқтисодий экспертиза турларини тўлиқ қамраб олади. Бу ёндашув Ўзбекистон шароитида ҳам қўлланилиши мумкин, чунки у иқтисодий жиноятларнинг кўп учрайдиган турларига мос келади.

Суд-бухгалтерия экспертизасининг асосий вазифалари бухгалтерия ҳисоби маълумотларининг тўғрилиги ва ишончилигини текшириш, бухгалтерия ҳисоби қоидаларига риоя қилинишини аниқлаш, камчилик ва хатоларни, қасддан қилинган қонун бузилишларни аниқлашдан иборат.

Молиявий-иқтисодий экспертиза корхонанинг молиявий ҳолатини баҳолаш, молиявий барқарорлик ва тўлов қобилияти кўрсаткичларини таҳлил қилиш, корхонанинг даромадлиги ва рентабеллигини баҳолаш, молиявий натижаларга таъсир этувчи омилларни аниқлаш каби масалаларни ўрганади.

Солиқ экспертизасининг асосий вазифалари солиқ ҳисоботларининг тўғрилигини текшириш, солиқ базасининг тўғри аниқланганлигини баҳолаш, солиқ имтиёзларининг асосли қўлланилганлигини текшириш, солиқларнинг тўғри ҳисобланганлиги ва ўз вақтида тўланганлигини аниқлашдан иборат.

Молиявий-таҳлилий экспертиза корхонанинг молиявий ҳолатини комплекс таҳлил қилиш, молиявий кўрсаткичларнинг динамикасини ўрганиш, молиявий барқарорлик ва тўлов қобилиятини баҳолаш, банкротлик эҳтимолини аниқлаш каби масалаларни ўрганади.

Молиявий-кредит экспертизаси кредит шартномаларининг қонунийлигини текшириш, кредит маблағларидан мақсадли фойдаланишни аниқлаш, кредитни қайтариш имкониятларини баҳолаш ва кредит операциялари билан боғлиқ фирибгарликларни аниқлаш масалаларини ўрганади.

Замонавий шароитда иқтисодий экспертизаларнинг роли тобора ортиб бормоқда. Бу эса экспертларнинг малакасини ошириш, замонавий технологиялардан фойдаланиш, экспертиза методикаларини такомиллаштириш каби масалаларни долзарб қилиб қўймоқда. Кўпгина ҳолларда комплекс экспертизалар ўтказиш зарурати туғилмоқда, бу эса турли соҳа мутахассисларининг ҳамкорлигини талаб этади.

Иқтисодий экспертизалар корхоналардаги молиялаштиришни тўғрилигини аниқлаш, олинган даромад миқдорини аниқлаш, солиқ солинадиган асосларни аниқлаш, иқтисодий фондларни яратилиш асосларини аниқлаш, меҳнат ҳақини ҳисоблашда меъёрий ҳужжатларга асосланганликни аниқлаш каби муҳим вазифаларни бажаради.

Умуман олганда, иқтисодий экспертизаларнинг турли хил таснифлари ва уларнинг ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Бу эса иқтисодий жиноятларни аниқлаш ва тергов қилиш жараёнида тўғри экспертиза турини танлаш ва уни самарали ўтказиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Муаллифлар жамоаси: Узаков У., Қолқанов Н., Астанов И., Солиева Н., Аббарова Н., Чураков Э., Ахмедова Р., Рустемов Я., Пак А., Махмудова З., Ўрозматов Ш., Махкамов М., Халилова Н., Сайтова Н., Атаниязов Д., Ғофуржонов А. Суд-экспертизаси ҳулосасининг ҳолислиги, илмий асосланганлиги ва қонунийлигини баҳолаш бўйича мисолларни киритган ҳолда турли соҳалардаги суд экспертизалари ҳулосалари акс этган. Электрон ўқув қўлланма. Х. Сулаймонова номидаги РСЭМ, 2022. 384-бет.

2. Тимченко В.А. Классификация судебных экономических экспертиз в современных условиях // Вопросы экспертной практики. 2019. С. 645.

3. Юматов В.А., Козменкова С.В. Экономические экспертизы: виды и классификация // Приволжский научный вестник. 2018. №3. С. 224.

4. Туримбетов Р., Каландарова М. ва Курбонов Н. Суд экспертизаси: саволларни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари. Қўлланма. Тошкент – 2021. 109-бет.

5. Гаджиев Н.Г., Киселева О.В., Коноваленко С.А., Скрипкина О.В., Ахмедова Х.Г. Развитие классификации судебных экономических экспертиз // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2020. № 2. С. 110.



ТАФТИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТИНИ ТАЙИНЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ

Баракаев Лазизжон Отакулович,
ю.ф.ф.д., Ўзбекистон Республикаси
ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Тошкент, Ўзбекистон
Телефон: +998909408260
proacademyresearch@yahoo.com

АННОТАЦИЯ: Мақолада тадбиркорлик субъектларига нисбатан тафтиш ўтказишнинг ҳуқуқий асослари ва процессуал тартиби таҳлил қилинган. Тафтишнинг иқтисодий жиноятларни тергов қилишдаги аҳамияти, уни тайинлаш ва ўтказиш босқичлари, шунингдек тафтиш самарадорлигини оширишга қаратилган муаммо ва ечимлар ёритилган. Тафтиш ўтказишда тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Тафтиш институтини такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тафтиш, тергов ҳаракати, иқтисодий жиноятлар, тадбиркорлик субъектлари, процессуал тартиб.

Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш ва тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотларнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирлар доирасида 2016 йил 29 декабрдаги ЎРҚ-418-сон Қонуни билан Жиноят-процессуал кодексига тафтиш қилишни тартибга солувчи янги нормалар киритилди. Бу эса тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқ ва манфаатларини дастлабки тергов ва суд босқичида самарали ҳимоя қилиш, уларнинг фаолиятига ноқонуний аралашуш ва тўсқинлик қилишни олдини олишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Тафтиш ўзига хос тергов ҳаракати сифатида иқтисодий жиноятларни тергов қилишда асосий далиллардан бири ҳисобланади. Тафтишнинг мақсади молия-хўжалик фаолиятидаги ва пул маблағларидан фойдаланишдаги қонунбузилиш ҳолатларини аниқлаш, етказилган зарарнинг ҳажмини белгилаш ва айбдор шахсларни жавобгарликка тортиш учун асос бўладиган далилларни тўплашдан иборат.

Тафтиш ўтказиш учун суриштирувчи ёки терговчи корхонанинг бухгалтерия ва молиявий фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари бузилиши натижасида жиноят содир этилганлиги ҳақида далиллар мавжуд бўлганда тафтиш тайинлайди.

Л.А.Савинанинг фикрига кўра, “маъмурий фаолият давомида тайинланадиган ҳужжатли текширувнинг вазифаси молия интизомига риоя қилиниши, бухгалтерия ва моддий ҳисоботнинг тўғри йўлга қўйилганлигини текширишдан иборат” [1, С. 22].

“Тафтишнинг мақсадига молия-хўжалик фаолиятидаги ва пул воситалардан фойдаланишдаги камчиликларни аниқлаш, етказилган зарарнинг ҳажмини кўрсатиш, бунда айбдор бўлган шахсларни жавобгарликка тортиш чораларини кўриш учун тафтиш материалларини тергов органларига тақдим этиш ҳам киритилади” [2, С. 93].

Жиноят-процессуал кодекснинг талабларига кўра, тафтиш жиноят ишини кўзғатишдан олдин ҳам, кейин ҳам тайинланиши мумкин. Бироқ тадбиркорлик субъектларига нисбатан тафтиш фақат кўзғатилган жиноят иши доирасида ўтказилиши мумкин.

Тафтиш ўзига хос тергов ҳаракати бўлиб, иқтисодий жиноятларни тергов қилишда муҳим далил бўлиб хизмат қилади. Тафтиш ўтказиш жараёни узок вақт талаб этади, лекин жиноят процесси босқичлари эса маълум вақт билан чегараланган. Шунинг учун, тафтиш ўтказиш зарурат туғилиши биланоқ тайинланиши лозим.

С.Т.Ереминнинг фикрича “суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья фуқаролар ва давлатнинг манфаатларини муҳофаза қилиш нуктаи назаридан иқтисодий жиноятларни аниқлаш ва тергов қилишда тафтиш далилларни тўплаш усулидан самарали восита сифатида фойдаланишлари лозим” [3, С. 233].

Миллий олимларимиздан И.Р.Астанов ўзининг тадқиқот ишида “Тафтишда йўл қўйилган хато ва камчиликларни бошқа ҳаракатлар билан аниқлаш жуда ҳам мураккаб, чунки у иқтисодий ҳолатга оид барча маълумотларни комплекс текширишни назарда тутди. Экспертиза эса берилган саволларни аниқлаштиришга қаратилган бўлади. Шу боис тафтишни тайинлашда жиноятларнинг латент бўлиб қолиб кетишини, текширишни бир томонлама ўтказишнинг олдини олиш талаб қилинади” [4, С. 93] деб таъкидлаган.

Тафтиш тайинлаш тўғрисидаги қарорда қуйидагилар акс эттирилиши шарт:



- текширилаётган субъектнинг тўлиқ номи, СТИР ва манзили;
- тафтиш ўтказиш учун асослар;
- ўрганилиши лозим бўлган масалалар доираси;
- текширилиши керак бўлган молия-хўжалик фаолияти даври;
- тафтиш ўтказувчи ваколатли орган номи.

Тафтиш ўтказишга Давлат солиқ қўмитаси, Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти, Молия вазирлиги ҳамда уларнинг ҳудудий тузилмаларидаги махсус гувоҳномага эга мутахассислар ваколатли ҳисобланади. Зарур ҳолларда бошқа давлат идораларининг мутахассислари ҳам жалб этилиши мумкин.

Тафтиш жараёнини самарали ташкил этиш учун қуйидаги босқичларга бўлиш мақсадга мувофиқ:

Тайёргарлик босқичи - бунда зарур ҳужжатлар ўрганилади, тафтиш тайинлаш зарурати аниқланади.

Тафтиш тайинлаш - тегишли қарор қабул қилинади ва расмийлаштирилади.

Тафтиш ўтказиш - белгиланган масалалар доирасида текширув амалга оширилади.

Натижаларни расмийлаштириш - тафтиш далолатномаси тузилади.

Натижаларни баҳолаш - тафтиш материаллари ўрганилиб, тегишли қарорлар қабул қилинади.

Тафтиш самарадорлигини оширишда қуйидаги муаммоларни ҳал этиш муҳим аҳамият касб этади:

- тафтиш тайинлаш асосларини қонунчиликда аниқ белгилаш;
- тафтиш ўтказиш муддатларини оптималлаштириш;
- тергов органлари ва тафтиш ўтказувчи мутахассислар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш;

- тафтиш натижаларини расмийлаштириш тартибини такомиллаштириш;

- замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш.

Хулоса қилиб айтганда, тафтиш иқтисодий жиноятларни тергов қилишда муҳим процессуал ҳаракат ҳисобланади. Унинг самарадорлигини ошириш учун қонунчиликни такомиллаштириш, тергов органлари ва тафтиш ўтказувчи мутахассислар малакасини ошириш, замонавий услуб ва воситалардан кенг фойдаланиш талаб этилади. Шунингдек, тафтиш ўтказиш жараёнида тадбиркорлик субъектларининг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Бу борада қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

1. Жиноят-процессуал кодексда тафтиш ўтказиш тартибини янада аниқлаштириш;
2. Тафтиш муддатларини оптималлаштириш механизмини ишлаб чиқиш;
3. Тафтиш натижаларини расмийлаштириш тартибини соддалаштириш;
4. Электрон ҳужжат айланиши тизимини жорий этиш;
5. Тергов органлари ва тафтиш ўтказувчи мутахассислар учун ўқув-услубий қўлланмалар тайёрлаш.

Мазкур таклифларнинг амалга оширилиши тафтиш институтининг самарадорлигини ошириш, иқтисодий жиноятларни тергов қилиш сифатини яхшилаш ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Савина Л.А. Организация и тактика предварительной проверки сообщений об экономических преступлениях. М., 2006. - Б. 22.

2. Астанов И.Р. “Жиноят ишлари бўйича махсус билимлардан фойдаланишнинг процессуал ва криминалистик жиҳатлари” Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Т.: 2020. – Б. 93.

3. Еремин С.Г. Организация документальной ревизии и аудиторской проверки по требованию правоохранительных органов для выявления обстоятельств преступлений // «Черные дыры» в Российском законодательстве. – 2006 - №2. – С. 233.

4. Астанов И.Р. “Жиноят ишлари бўйича махсус билимлардан фойдаланишнинг процессуал ва криминалистик жиҳатлари” Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Т.: 2020. – Б. 93.



КИБЕРЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ, УЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДАГИ МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.

Собиров Фурқат Одилжонович
Андижон вилоят судининг судьяси

Аннотация: мақола кибержиноятлар турлари, уларнинг тушунчаси, унга қарши курашиш бўйича миллий ва хорижий қонунчилик тажрибасини ўрганишга бағишланган бўлиб, шу асосда миллий қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кибермакон, кибержиноят, киберхавфсизлик, интернет, ахборот, хавфсизлиги, ахборот технологиялари, халқаро ҳамкорлик, электрон дастурлар.

Бугунги глобаллашув жараёнида ахборот чегара билмас кучга айланиб, бутун дунё аҳолисини бошқармоқда. Энг йирик глобал маконга айланган интернет нафақат шахсга, балки жамият ва давлат хавфсизлигига даҳл қилувчи қуролга ҳам айланиб улгурди. Хусусан, БМТ Бош Ассамблеяси, Европа Кенгаши, ШХТ, МДХ, Араб давлатлари лигаси ва бошқа ташкилотлар томонидан ахборот-коммуникация технологияларидан жиноий мақсадларда фойдаланишга қарши курашиш бўйича минтақавий ва халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Статистик маълумотларга кўра, ҳозирги вақтда дунё аҳолисининг 5,52 млрд.дан ёки дунё аҳолисининг 67,5% ортиғи интернет фойдаланувчиси ҳисобланиб, киберхавфсизлик бўйича халқаро экспертлар фикрича 2024 йилда киберҳужумлар ҳар 9 секундда содир бўлган. Statista's Market Insightsнинг ҳисоботларига асосан дунёда 2024 йилнинг ўзида кибержиноятчилик оқибатида 9.22 триллион доллар зарар етказилган.

I. Кибержиноят тушунчаси ва уларнинг турлари

Кибержиноятлар – бу ахборот технологиялари, интернет ва компьютер тизимларидан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган жиноятлар бўлиб, уларнинг асосий турлари қуйидагилардан иборат:

- Ҳакерлик ҳужумлари – компьютер тизимларига ноқонуний кириш, маълумотларни ўғирлаш ёки ўзгартириш, маълумотларни йўқ қилиш, фуқаролар ва давлат мулкани ўзлаштириш ёки уўбу мулкларга зарар етказиш;

- Фишинг ва киберқаллоблик – фирибгарлик йўли билан шахсий маълумотлар, банк реквизитлари ва паролларни қўлга киритиш, шахсларнинг шаъни ва қадр-қимматини камситиш;

- Махфий маълумотларни тарқатиш ва шантаж – шахсий ёки давлат ахборотларини ошкор қилиш билан таҳдид қилиш, давлатлар ўртасидаги муносабатларга путур етказиш;

- Кибертерроризм ва давлат ахборот тизимларига ҳужумлар – давлатнинг стратегик ахборот базаларига кириб, фаолиятига хавф туғдириш;

- Дастурий вируслар тарқатиш – зарарли дастурлар ёрдамида компьютер ёки мобил қурилмаларни ишдан чиқариш, компьютер саботаж.

Бугунги кунда интернет тармоғининг чегараси бўлмагани каби кибержиноятларнинг тугаш чегарасини ҳам белгилаб бўлмайди. Кундан кунга кибержиноятларнинг содир этиш усулларни ошиб бориши натижасижа унинг турлари ҳам кўпайиб бормоқда. Шу сабабли кибержиноятларнинг содир этилиши усулидан келиб чиқиб, юқоридаги жиноятлар турларининг умумий номланиши келтириб ўтилди.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида ахборот технологиялари соҳасида жиноятлар алоҳида XX¹-боб сифатида 2019 йил 3 декабрдаги ЎРҚ-586-сонли Қонуни билан янги таҳрирда қабул қилинди ва ушбу боб янги жиноят турлари билан тўлдирилиб келинмоқда.

Жумладан, 2024 йил 19 январдаги ЎРҚ-899-сонли Қонунга асосан ушбу боб 278⁸-модда, яъни Крипто-активлар айланмаси соҳасидаги қонунчиликни бузиш ҳамда 278⁹-модда, яъни Майнинг фаолиятини қонунга хилоф равишда амалга ошириш каби жиноятлар билан тўлдирилди. Келажакда ушбу соҳадаги жиноятлар тури янада кўпайиб боришига ишончимиз комил.

Бундан ташқари, амалдаги Жиноят кодексининг айрим моддаларининг диспозициялари “компьютер техникаси воситаларидан фойдаланган ҳолда”, “қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) ахборот тизимига кириб ҳамда ахборот тизимидан, шу жумладан ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда” деган жиноятлар тушунчалари билан тўлдирилди.



II. Ўзбекистонда кибержиноятларга қарши курашиш тизими

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармонида белгиланган етти устувор йўналишларидан бири “Мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш” ҳисобланади.

Ушбу устувор йўналишнинг биринчи, Тараққиёт стратегиясининг эса 89-мақсадида, фуқароларнинг ахборот олиш ва тарқатиш эркинлиги борасидаги ҳуқуқларини янада мустаҳкамлашга оид қуйидаги:

- ахборот соҳасини тартибга солувчи ягона тизимлаштирилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш;
- фуқароларнинг ахборот-коммуникация воситаларидан фойдаланиш маданиятини ошириш;
- шахсий ва сир сақланиши лозим бўлган маълумотларни Интернет тармоғида ошкор қилиш билан боғлиқ дахлсизлик ҳуқуқи бузилишининг олдини олиш;
- кибержиноятчиликнинг олдини олиш тизимини яратиш билан боғлиқ чора-тадбирларни амалга ошириш кўзда тутилган.

2022 йил 15 апрелда Ўзбекистон Республикасининг “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Қонуннинг мақсади – мамлакатимизда киберхавфсизлик соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат бўлса, асосий вазифалари – кибермаконда шахс, жамият ва давлат манфаатларини ташқи ва ички таҳдидлардан ҳимоя қилиш ҳисобланади.

Бундан ташқари, Ўзбекистонда кибержиноятларга қарши курашиш борасида бир қатор қонунлар ва норматив ҳужжатлар мавжуд бўлиб, улар Ўзбекистонда ахборот технологиялар, электрон дастурлар, электрон ахборот олиш усуллари ва кибержиноятлар ҳамда уларнинг турлари ва бошқа тушунчалар ҳақида маълумотлар берилган.

Жумладан:

“Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида”ги қонун 2002 йил 12 декабрдаги 439-II-сонли Қонун – ушбу қонун мазмуни ахборот эркинлиги ва кафолатлари, ҳар кимнинг ахборотни эркин ва монеликсиз излаш, олиш, текшириш, тарқатиш, фойдаланиш ва сақлаш ҳуқуқлари рўйбга чиқарилишини, шунингдек ахборотнинг муҳофаза қилинишини ҳамда шахс, жамият ва давлатнинг ахборот борасидаги хавфсизлигини таъминлашдан иборат;

Шунингдек, “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги қонун 2015 йил 5 декабрдаги 395-сонли Қонун – ушбу қонунда давлат органлари фаолиятининг самарадорлигини, тезкорлигини ва шаффофлигини таъминлаш, уларнинг масъулиятини ва ижро интизомини кучайтириш, аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари билан ахборот алмашишни таъминлашнинг қўшимча механизмларини яратиш, аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари билан ўзаро муносабатларни амалга оширишда электрон ҳужжат айланиши, давлат органларининг ўзаро ҳамкорлиги ва уларнинг маълумотлар базалари ўртасида ахборот алмашинуви механизмларини шакллантириш ҳисобида давлат бошқаруви тизимида «бир дарча» принципини жорий этиш ва бошқа ҳаракатларни амалга ошириш тартибга солинган.

III. Кибержиноятларга қарши курашишда учраётган муаммолар

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда кибержиноятларга қарши курашиш ва киберхавфсизликни таъминлаш бўйича бир қатор муаммолар мавжуд.

1. Қонунчиликдаги бўшлиқлар – кибержиноятларнинг янги турлари тез пайдо бўлаётгани сабабли, амалдаги қонунчиликни амалиётда юзага келаётган муаммолар билан ўзаро таққослаб, мониторинг ўтказиб уларни доимий янгилаш, мукаммаллаштириб бориш талаб этилади.

2. Техник имкониятларнинг чекланганлиги – ҳуқуқ-тартибот органлари ва давлат муассасаларининг кибержиноятларга қарши курашиш учун зарур ускуналар ва дастурий таъминот билан тўлиқ таъминланмаган.

3. Амалий тажрибанинг етишмовчилиги – кибержиноятларга қарши курашишда малакали мутахассисларнинг камлигини, уларнинг малакасини ошириш зарур.

4. Жамоатчилик кибержиноятлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга эмасликлари, ҳуқуқий маданиятнинг етарли даража эмаслиги – кўп фуқаролар ва тадбиркорлар кибермакон нима эканлиги, ундаги кибержиноятлар ҳақида ахборотга эга эмасликлари ҳамда киберҳужумлардан қандай ҳимояланиш кераклигини яхши тушунмайди.



IV. Муаммоларни ҳал этиш йўллари

Кибержиноятларга қарши курашиш ва уларни аниқлаш самарадорлигини ошириш учун юзасидан қуйидаги чоралар таклиф этилади:

Қонунчиликни такомиллаштириш, кибержиноятларга оид қонунларнинг халқаро стандартларга мос келиши ва доимий янгиланиб, мукамаллашиб боришини таъминлаш, унга қарши курашишда замонавий техника инфратузилмани кучайтириш, киберхавфсизлик тизимларини янгилаш, давлат идораларининг ҳимоясини мустаҳкамлаш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ушбу турдаги жиноятларга қарши курашиш юзасидан салоҳиятини ошириш, IT-экспертлар тайёрлаш, уларни халқаро тренингларга жалб қилиш, оммавий ахборот воситалари ва таълим муассасалари орқали кенг тарғибот ишларини олиб бориш, интернет фойдаланувчиларини киберхужумлардан ҳимояланиш йўллари ҳақида хабардор қилиш, халқаро ҳамкорликни кучайтириш – кибержиноятларнинг трансмиллий хусусиятини инобатга олган ҳолда, халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни кенгайтириш.

Кибержиноятлар бугунги кунда нафақат миллий, балки халқаро миқёсда ҳам жиддий таҳдидлардан бирига айланмоқда. Ўзбекистонда ушбу муаммога қарши курашиш учун муайян қонунлар ва тизимлар мавжуд бўлса-да, ҳали ҳам ечимини кутаётган муаммолар мавжуд. Киберхавфсизликни таъминлаш учун қонунчиликни такомиллаштириш, техник имкониятларни ошириш, аҳолининг билим даражасини кўтариш ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <http://www.statista.com/> (The Statistics Portal) <https://worldmarketstudies.ru/>
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/111453> . (Мурожаат этилган сана 07.02.2025 йил).
3. Ўзбекистон Республикасининг “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги Қонун // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://lex.uz/uz/docs/5960604> (Мурожаат этилган 07.02.2025 йил).
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонун // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://lex.uz/docs/83472?ONDATE=30.03.2021%2000> (Мурожаат этилган 07.02.2025 йил).
5. Ўзбекистон Республикаси “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги Қонун // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://www.lex.uz/acts/2833860>. (Мурожаат этилган сана 07.02.2025 йил)
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси) <https://lex.uz/docs/5841063> (Мурожаат этилган сана 07.02.2025 йил).



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ ОБЩЕСТВА

Файзуллаева Рухшона Лутфуллоевна

Студентка Факультета английской филологии и переводоведения
Самаркандского Государственного института иностранных языков

Аннотация: В статье рассматривается значение национального языка как ключевого фактора в формировании и развитии духовности. Анализируется его влияние на культурную идентичность, историческую память и нравственные ценности общества. Особое внимание уделено роли языка в передаче духовных традиций и сохранении моральных основ общества.

Ключевые слова: национальный язык, духовность, культурная идентичность, нравственные ценности, традиции.

Национальный язык играет важнейшую роль в формировании духовных ценностей общества, обеспечивая сохранение культурного наследия и нравственных установок народа. Он является не только средством коммуникации, но и инструментом передачи духовных знаний, традиций и философских концепций. В условиях глобализации проблема сохранения национального языка становится особенно актуальной, поскольку он находится под влиянием доминирующих мировых языков и массовой культуры. Исследование данной темы позволяет лучше понять механизмы взаимодействия языка и духовности, а также выявить стратегии сохранения и развития национальных языков.

Исследования роли национального языка в развитии духовности ведутся в рамках различных дисциплин, включая социолингвистику, философию и культурологию. Работы таких авторов, как Бенедикт Андерсон [1], Ю. Д. Апресян [2] и П. Бурдые [3], подчеркивают, что язык не только является средством коммуникации, но и инструментом передачи духовных и нравственных ценностей.

Андреев [4] рассматривает влияние национального языка на формирование духовной идентичности, а Тишков [5] анализирует вопросы сохранения культурных и религиозных традиций через язык.

Национальный язык является важнейшим элементом духовного развития общества. Он объединяет носителей общей культуры, формирует их мировоззрение и способствует сохранению традиционных нравственных ценностей. Через язык передаются философские идеи, моральные принципы и религиозные концепции.

Язык также способствует формированию коллективного сознания, определяя рамки «своего» и «чужого». Именно через язык происходит социализация индивидов, что укрепляет их связь с духовным наследием предков. Чем больше общество осознает значимость родного языка, тем сильнее его стремление к сохранению духовных традиций.

Язык служит не только инструментом коммуникации, но и механизмом, сохраняющим духовное и религиозное наследие народа. Национальная литература, философские труды, религиозные тексты и искусство формируются благодаря языковому наследию. Потеря или упадок национального языка может привести к утрате духовных ценностей и ослаблению нравственных ориентиров.

Кроме того, язык является хранилищем коллективной памяти народа. Исторические тексты, народные предания, пословицы и поговорки передают мудрость поколений, формируя духовные убеждения и мировоззрение. Сохранение языка способствует передаче этих знаний будущим поколениям.

Современные глобализационные процессы способствуют распространению доминирующих языков, что ведет к маргинализации малых национальных языков. Однако именно национальный язык является важным средством противостояния духовной



унификации. Государственная политика, направленная на поддержку национального языка, способствует сохранению духовного наследия народа.

В ряде стран разработаны программы по защите национального языка, включающие образовательные реформы, популяризацию родной речи в религиозных и культурных контекстах. Важно не только сохранять язык, но и адаптировать его к современным реалиям, расширяя его применение в образовательной и духовной сферах.

Язык играет важную роль в формировании государственной и религиозной идентичности. Многие государства принимают законодательные меры для защиты и развития национального языка. Например, во многих странах поддерживаются национальные языки как средство передачи духовных традиций и моральных ценностей.

Кроме того, язык становится фактором духовного пробуждения общества. В истории есть примеры, когда борьба за признание национального языка становилась частью движения за духовное возрождение. Признание языка на государственном уровне укрепляет социальную сплоченность и способствует нравственному развитию общества.

Национальный язык играет ключевую роль в формировании духовности, культурной идентичности и социальной консолидации. В условиях глобализации особое значение приобретает поддержка национальных языков на государственном уровне, поскольку их сохранение является залогом сохранения духовных традиций и исторической преемственности нации.

Список использованной литературы

1. Андерсон Б. Воображаемые сообщества: Размышления о происхождении и распространении национализма. – М.: Канон-Пресс, 2001.
2. Апресян Ю. Д. Избранные труды: Лексическая семантика. – М.: Языки русской культуры, 1995.
3. Бурдые П. Язык и символическая власть. – М.: Весь Мир, 2001.
4. Андреев В. П. Национальный язык и его влияние на культурную идентичность. – СПб.: Наука, 2012.
5. Тишков В. А. Язык и идентичность в эпоху глобализации. – М.: Российская академия наук, 2010.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

INTERCOMPONENT RELATIONS IN COMPLEX SYNTACTIC CONSTRUCTIONS: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK

Xamrayeva Zebiniso Xaydar qizi

Senior Teacher, PhD, Samarkand State

Institute of Foreign Languages

Email: destiny-xzx@mail.ru

Abstract: *The study of complex syntactic constructions represents one of the core directions in modern theoretical linguistics, particularly in the context of syntactic typology and comparative grammar. This paper presents a comparative analysis of intercomponent relationships within complex syntactic constructions in English and Uzbek languages. The research addresses the differences and similarities in how subordinate and coordinate clauses are organized, and how these interrelations contribute to the semantic integrity of compound and complex sentences. The study is grounded in functional grammar (Halliday & Matthiessen), traditional syntactic theory (Greenbaum, Miller), and principles of derivational syntax (Tallerman). Through a qualitative comparison of English and Uzbek sentence structures, the research identifies that English favors rigid syntactic order and explicit subordination markers (e.g., conjunctions), while Uzbek allows more flexibility and relies heavily on verbal morphology and contextual cues for hierarchical structuring. It also demonstrates that both paratactic (coordinating) and hypotactic (subordinating) relations are foundational to the formation of complex syntactic constructions in both languages, though their functional realization varies*

Keywords: *complex syntactic constructions, English, Uzbek, intercomponent relationships, coordination, subordination, parataxis, hypotaxis, derivation.*

Introduction to intercomponent relations in complex syntax

Complex syntactic constructions (CSCs) form a significant area of inquiry in both theoretical and comparative linguistics. These structures not only carry complex semantic loads but also exhibit language-specific organizational patterns. The relationships between the components (clauses) within a complex construction—whether coordinated (parataxis) or subordinated (hypotaxis)—play a key role in shaping the meaning and communicative function of such sentences. The comparative investigation of English and Uzbek CSCs allows us to highlight typological differences and discover universal patterns of syntactic organization.

Theoretical background

M.A.K. Halliday and Christian Matthiessen (2004) in *An Introduction to Functional Grammar* emphasize the functional basis of complex clauses, arguing that clause complexes are formed not only structurally but also through semantic and pragmatic associations. They consider meaning proximity and textual cohesion as critical factors in clause integration. For instance, in the clause complex “*He pointed his arrow, but saw nothing*”, the coordination is both grammatical and semantic, reflecting simultaneity or consequence.

Similarly, J. Miller (2002) highlights the syntactic role of verbs in clause structuring. He emphasizes that a main clause often dominates dependent clauses (e.g., “*Elizabeth regretted that she had met Wickham*”), where the subordinate clause fills a syntactic slot such as subject, object, or complement.

S. Greenbaum (1996) also contributes significantly by classifying clauses into simple, compound, and complex, noting that the distinction between parataxis and hypotaxis is crucial for identifying the nature of clause linkage. He emphasizes that in hypotactic constructions, the subordinate clause depends structurally and semantically on the main clause, whereas in paratactic constructions, the clauses are more or less independent but are linked functionally.

Typological differences between English and Uzbek

In English, CSCs are typically formed using strict syntactic rules. Clause order, conjunction usage, and verbal tenses play a critical role in establishing intercomponent relations. Subordinating



conjunctions (e.g., *because*, *although*, *when*) clearly signal dependency, while coordinating conjunctions (e.g., *and*, *but*, *or*) denote equality or parallelism.

In Uzbek, however, CSCs exhibit greater flexibility in clause order due to the agglutinative nature of the language and its rich morphological system. Verbal suffixes and tense forms often carry the syntactic burden of expressing dependency or coordination. For example:

- *U maktabga bordi va ustoz bilan suhbatlashdi.* (He went to school and talked to his teacher.) – coordination
- *U maktabga borgach, ustoz bilan suhbatlashdi.* (After he went to school, he talked to his teacher.) – subordination

The Uzbek example shows how the use of verb-derived conjunctions (*-gach*) signals a temporal subordination without needing an explicit subordinating conjunction as in English.

Semantic and syntactic implications

A. Downing and P. Locke (2006) in *English Grammar: A University Course* explain that syntactic relationships in CSCs often align with semantic roles. That is, coordination often reflects events of equal status, while subordination suggests a hierarchy of ideas. This alignment is more explicit in English than in Uzbek, where contextual inference plays a greater role.

Tallerman (2011) introduces the concept of clause *bands*, emphasizing that clauses in CSCs operate within a hierarchical structure where the matrix clause governs the embedded clauses. This notion is clearly illustrated in English but is often blurred in Uzbek due to ellipsis or pragmatic omission.

Key observations and findings

The comparative analysis of complex syntactic constructions (CSCs) in English and Uzbek reveals distinct patterns in clause integration and structural realization. English CSCs are primarily governed by strict word order, clear matrix-subordinate clause distinctions, and the use of explicit conjunctions to signal semantic relationships such as time, cause, or contrast. For instance, in the sentence “*She left the room because she was upset*,” the subordinating conjunction *because* explicitly marks the causal relationship between the two clauses. In contrast, Uzbek CSCs rely more on morphological markers and verb suffixes to convey similar meanings. For example, the equivalent Uzbek sentence “*U xafa bo‘lgani uchun xonani tark etdi*” expresses the same causal relationship, but the linkage is carried by the verb-based conjunction *-gani uchun*, derived from the verb itself, illustrating the role of morphological derivation in Uzbek syntax.

Additionally, English typically maintains a fixed clause order (main clause followed by subordinate clause or vice versa), while Uzbek allows for more flexibility due to its agglutinative structure and case marking system, which reduces dependency on linear positioning. Both languages utilize parataxis (coordination) and hypotaxis (subordination), but the means of realization differ. English favors overt syntactic markers such as *and*, *but*, *although*, whereas Uzbek tends to use contextual cues and verb morphology. For instance, the English compound sentence “*He came home and cooked dinner*” corresponds to the Uzbek sentence “*U uyga keldi va kechki ovqat pishirdi*”, where the coordinating conjunction *va* serves a similar function.

These findings underscore that intercomponent relationships in CSCs are not merely additive but function as integrated syntactic and semantic units. This perspective aligns with Halliday and Matthiessen’s (2004) view that clause complexes are constructed based on logical-semantic relationships and serve as unified expressions of meaning rather than independent syntactic fragments. Thus, the study of these constructions provides deeper insights into each language’s grammatical architecture and supports more effective approaches in translation and linguistic analysis.

Conclusion

The comparative study of complex syntactic constructions in English and Uzbek demonstrates that while both languages utilize coordination and subordination to structure meaning, their mechanisms of clause integration differ significantly. English relies on a fixed syntactic order and explicit conjunctions to express intercomponent relationships, whereas Uzbek favors morphological and contextual means, allowing for greater syntactic flexibility. These differences reflect deeper typological distinctions rooted in the analytic nature of English and the agglutinative structure of Uzbek.

Importantly, both languages treat complex sentences not as a sequence of isolated clauses but as cohesive semantic and syntactic wholes. Intercomponent relations—whether paratactic or hypotactic—serve to build meaning hierarchies and establish discourse coherence. This confirms the view presented by Halliday and Matthiessen (2004) that clause complexes function as unified systems governed by both grammatical and functional motivations.



Understanding these structural and functional differences has practical implications for translation, language teaching, and cross-linguistic syntactic analysis. It emphasizes the importance of syntactic awareness and linguistic context in capturing the full semantic load of complex constructions in both English and Uzbek.

References:

1. Downing, A., & Locke, P. (2006). *English Grammar: A University Course* (2nd ed.). Canada: Routledge.
2. Greenbaum, S. (1996). *The Oxford English Grammar*. New York: Oxford University Press.
3. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C. (2004). *An Introduction to Functional Grammar* (3rd ed.). Great Britain: Arnold.
4. Miller, J. (2002). *An Introduction to English Syntax*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
5. Tallerman, M. (2011). *Understanding Syntax* (3rd ed.). UK: Hodder Education.
6. Xamrayeva Z. EXPLORING THE SYNTAXES OF COMPLEX SYNTACTIC WHOLEs // Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 44-47.
7. Xamrayeva Z., Saidazamova M. TRANSFORMING EDUCATION. THE POWER OF THE FLIPPED CLASSROOM APPROACH //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 60-63.
8. Xamrayeva Z., Saidazamova M. TRANSFORMING EDUCATION. THE POWER OF THE FLIPPED CLASSROOM APPROACH //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 60-63.



HIERARCHICAL AND FUNCTIONAL DESCRIPTION OF COMPLEX SYNTACTIC CONSTRUCTIONS: A DERIVATIONAL AND SEMANTIC APPROACH

Xamrayeva Zebiniso Xaydar qizi

Senior Teacher, PhD, Samarkand State

Institute of Foreign Languages

Email: destiny-xzx@mail.ru

Abstract: *This article investigates the types of complex syntactic constructions that function as units between a simple sentence and a paragraph from a hierarchical linguistic perspective. Emphasis is placed on the syntactic-derivational and speech-semantic features of these constructions, drawing on existing linguistic classifications such as compound sentences, complex sentences, compound-complex sentences, syntactic wholes, and periods. Through an analytical approach, the study identifies both differences and similarities among these constructions, contributing to a more nuanced understanding of their place in discourse and syntax.*

Key words: *Complex syntactic constructions, compound sentence, complex sentence, asyndetic sentence, compound, period, syntactic derivation, coordination, subordination, parataxis, hypotaxis, ellipsis, substitution, speech-semantic features, logical relations, discourse development, coherence, cohesion, stylistic function, argument structure, hierarchical structure,*

Introduction

In modern linguistics, the study of syntactic constructions has evolved beyond the sentence level, with increasing attention paid to larger units of discourse such as syntactic wholes and textual macro-units. When viewed hierarchically, there exists an intermediate layer between the simple sentence and the paragraph: complex syntactic constructions that fulfill cohesive and communicative functions in connected speech. Classifying these units not only enhances our understanding of syntactic structure but also aids in grasping the interaction between form and meaning.

This article aims to provide a descriptive and analytical overview of complex syntactic constructions by relying on their syntactic-derivational and speech-semantic features. It synthesizes existing classifications and explores how constructions such as compound, complex, and compound-complex sentences, as well as larger discourse units like the *syntactic whole* and *period*, operate within the linguistic hierarchy.

Methodology

The research employs a comparative-linguistic method with a derivational approach to syntactic structures and a functional-semantic lens for examining their role in discourse. Primary sources include descriptive grammars, theoretical linguistic works on syntax, and discourse analysis literature in both English and Uzbek. Each type of syntactic construction is analyzed based on formal structure, derivational history, and semantic-functional role.

Results and Discussion

Linguistic units exist in a hierarchy: morpheme → word → phrase → clause → sentence → paragraph → text. Complex syntactic constructions, which include compound and complex sentences, as well as multi-sentence formations like syntactic wholes or periods, occupy a unique position between the sentence and paragraph. These constructions carry cohesive meaning, thematic unity, and textual continuity.

Linguistic literature identifies several key types of complex syntactic constructions, each characterized by distinct structural and functional features. A **compound sentence** (*bog'langan qo'shma gap*) connects two or more independent clauses through coordinating conjunctions such as *and*, *but*, or *or*. For example, "*The teacher entered the room, and the students stood up.*" Here, both clauses can stand alone, but coordination signals a unified meaning. In contrast, a **complex sentence** (*ergashgan qo'shma gap*) consists of an independent clause and one or more dependent clauses, typically introduced by subordinating conjunctions like *because*, *although*, or *when* — e.g., "*She smiled because she passed the exam.*" The clause "*because she passed the exam*" depends on the main clause for full interpretation. An **asyndetic compound sentence** (*bog'lovchisiz qo'shma gap*) omits conjunctions altogether, relying instead on intonation, punctuation, or context for cohesion, as in "*It was late, he didn't come.*" Though no conjunction links the clauses, the temporal and causal connection is understood.



The **compound-complex sentence** (*murakkab qo'shma gap*) merges both coordination and subordination, often forming layered structures. An example would be: "*He said he would come, but he didn't show up.*" Here, the first clause includes a subordinate structure (*he would come*), while the second is coordinated with the first via *but*. Moving beyond the sentence level, a **syntactic whole** (*murakkab sintaktik butunlik*) refers to a group of interrelated sentences forming a semantic and thematic unit. For instance, a short narrative like: "*The storm began suddenly. The sky turned black. Thunder echoed across the hills.*" demonstrates thematic unity and progressive development. A **suprasentential unity** (*gapdan katta birlik* or *sverxfrazovoe edinstvo*) functions similarly but typically operates at the paragraph level, organizing thoughts in a logical sequence across several sentences to elaborate an idea, argument, or description. Lastly, a **period** (*period*) is a rhetorical-syntactic structure in which several clauses or sentences are arranged rhythmically and semantically for stylistic effect. An example of a period might be: "*When the storm passed, when the sky cleared, and when the birds sang again, only then did peace return.*" Such constructions are often used in formal or literary contexts to heighten expression and maintain balance.

From a syntactic-derivational perspective, complex syntactic constructions are formed through specific grammatical mechanisms that determine their internal structure and functional dynamics. One of the primary derivational strategies is **coordination**, or *parallel derivation*, where two or more clauses of equal grammatical status are combined to form a compound sentence. Each clause could function independently, but when coordinated—using conjunctions like *and*, *but*, or *or*—they create a unified syntactic unit, as in "*The sun set, and the stars appeared.*" Another key mechanism is **subordination**, or *hierarchical derivation*, in which a dependent clause is embedded within a main clause, contributing additional meaning such as reason, condition, or time. For example, in "*She was happy because she won,*" the subordinate clause "*because she won*" derives its syntactic function from the main clause.

Beyond these, **parataxis** and **hypotaxis** represent broader structural principles: *parataxis* refers to the juxtaposition of clauses without overt subordination—common in asyndetic constructions—while *hypotaxis* involves explicit hierarchical relationships between clauses. In **asyndetic compound sentences**, derivation relies on devices like **ellipsis** and **substitution** to maintain cohesion without conjunctions. For instance, in "*He came, she left,*" the logical connection is understood contextually, and may involve omitted elements that are semantically recoverable. More advanced structures like the **period** emerge from deliberate syntactic and stylistic derivation, where multiple sentences or clauses are rhythmically and semantically organized into a cohesive whole. This involves not only grammatical coordination and subordination but also stylistic techniques such as repetition, parallelism, and climax, all contributing to its expressive and rhetorical power.

In terms of **speech-semantic characteristics**, complex syntactic constructions play a vital role in shaping meaningful and coherent communication. These structures are not only grammatical in nature but also serve essential **discourse functions**. They are instrumental in **expressing logical relations** such as cause and effect ("*She was late because the bus broke down*"), contrast ("*He is rich, but he is not happy*"), and addition ("*She speaks English, and she writes in French*"). Beyond linking ideas, complex constructions contribute to the **development of discourse themes**, guiding the listener or reader through a logical progression of thought. This is particularly important in academic writing, where clarity and flow are paramount. Moreover, these constructions help **maintain coherence and cohesion** within a text, ensuring that individual sentences are not isolated but interconnected within a larger semantic framework. Structures like the **syntactic whole** and **period** are especially significant in this regard, as they often encapsulate an argument or narrative, providing structure and stylistic depth. For example, a well-formed period in rhetorical speech might build suspense or emphasize a point through repetition and rhythm, surpassing the communicative power of simple or compound sentences.

When examining these constructions closely, it becomes evident that there are **overlaps and distinctions** among them. A **compound-complex sentence**, for instance, can be as long and layered as a **syntactic whole**, blurring the boundary between sentence and discourse-level unit. Similarly, a **period** may be structurally comparable to a compound or complex sentence but operates on a higher **stylistic and rhetorical plane**, aiming not just to inform but also to persuade or impress. Furthermore, **syntactic wholes** and **suprasentential units** often incorporate various types of subordinate and coordinate clauses, leading to **multi-layered semantic relations** within a single paragraph or section of text. These intersections suggest that strict categorizations may not always



reflect the functional diversity of such constructions in real usage. Therefore, a more **flexible and context-sensitive approach** to classification—one that accounts for both syntactic structure and communicative intent—is essential for accurately understanding and analyzing complex syntactic constructions.

Conclusion

Complex syntactic constructions serve as vital linguistic units that bridge the gap between simple sentences and broader discourse structures like paragraphs. When analyzed through the lens of syntactic derivation and speech semantics, these constructions reveal nuanced internal hierarchies and communicative purposes. Recognizing their classification — whether as compound, complex, compound-complex sentences, or larger formations such as periods or syntactic wholes — contributes significantly to our understanding of language structure and discourse coherence. Future research may explore the cognitive processing of such constructions and their stylistic deployment across different genres and languages.

References:

1. Downing, A., & Locke, P. (2006). *English Grammar: A University Course* (2nd ed.). Canada: Routledge.
2. Greenbaum, S. (1996). *The Oxford English Grammar*. New York: Oxford University Press.
3. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C. (2004). *An Introduction to Functional Grammar* (3rd ed.). Great Britain: Arnold.
4. Miller, J. (2002). *An Introduction to English Syntax*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
5. Tallerman, M. (2011). *Understanding Syntax* (3rd ed.). UK: Hodder Education.
6. Xamrayeva Z. EXPLORING THE SYNTAXES OF COMPLEX SYNTACTIC WHOLEs // Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 44-47.
7. Xamrayeva Z., Saidazamova M. TRANSFORMING EDUCATION. THE POWER OF THE FLIPPED CLASSROOM APPROACH //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 60-63.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SHUKUR QURBON SHE'RIYATIDA IJTIMOY LIRIKA TALQINI

Aslonova Gulmira

Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
1-kurs magistranti
Telefon: +99899-357-22-12

Annotatsiya. Bugungi o'zbek adabiyotida, ayniqsa she'riyatida, ijtimoiy davr manzarasi va lirik qahramon ruhiyatidagi evrilishlar yangi tendensiyalar ko'rinishida yuzaga kelmoqda. Bu ayniqsa Shukur Qurbon ijodida lirik qahramon ichki kechinmalari va tabiat tasvirlari bir-biriga uyg'un tarzda ifodalanganida yaqqol namoyon bo'ladi. She'rlarida ona vatanga bo'lgan sadoqat keng muhokama qilinadi. Shu bilan birga, mustaqillik va erkinlik g'oyalari, asosan, sadoqat va vafolok nuqtai nazaridan tasvirlanadi. Shukur Qurbonning she'riyati o'zining badiiy ifoda va obrazlilik nuqtai nazaridan o'zbek she'riyatida yangi ohanglar kiritgan va mazmunini boyitgan ijod namunasi sifatida ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar. Shukur Qurbon, ijtimoiy lirika, lirik qahramon, peyzaj tasviri, tabiat, mustaqillik, sadoqat.

Bugungi kun o'zbek adabiyotida ijtimoiy davr manzarasi turfa ijod namunalarida o'z aksini topmoqda. Bugungi o'zbek she'riyatida lirik qahramon ruhiyatidagi evrilishlar o'ziga xos tarzda talqin qilinmoqda. Nazmda lirik qahramonning oniy kayfiyati akslantiriladi. Bahodir Karim ta'kidlaganidek "Ijodkor muayyan ijtimoiy talabga mos stereotiplar ichida o'zligini yo'qotadi. Qalam ahlining kelajagidan bashorat berish mushkul. Ijod so'zga, ruhiyatga, ko'ngil ma'vosiga, shon-shuhratga daxldor; yuksalish va tanazullarni o'zida jamlaydi. Insoniyatga foydali samaralarni, o'z individual hayotiga tegishli besamar o'tgan umrni in'ikos ettiradi." O'zbek adabiyoti yetuk namoyondalaridan biri Shukur Qurbon she'riyatidagi ijtimoiy lirika peyzaj tasviri bilan hamohang holda tasvirlanadi. Lirik qahramon ichki kechinmalari tabiat bag'ridagi rangin lahzalar bilan tasvirlanadi.

Yana keldim bag'ringga ey tog',
Ey pokiza, ey yuksak panoh!
Iflosliku tubanliklardan
Qochib keldim keldim banogoh!...
Yana keldim bag'ringga, ey tog'!

Azaldan inson tabiat bilan birga hamnafas yashaydi, uning bag'rida o'sadi, unadi. Shuning uchun ijodkor olamini ham tabiat tasvirisiz tasavvur etish mumkin emas. Shoirning quyidagi satrlarida ko'rishimiz mumkinki, ona tabiat bag'rida panoh izlab kelgan lirik qahramon, bu dunyoning iflosliku, tubanliklaridan qutilmoqchi bo'lib, tabiat bag'riga qaytadi. Zero eng sof, eng toza saqlanib qolgan faqatgina ona tabiatdir.

Nafasingdan simirsam, tuysam,
Qo'shiq aytsam, toshlar tinglasa!...
Cho'qqilardan yiqilib o'lsam,
O'lganimni hechkim bilmasa!...
Qo'shiq aytsam toshlar tinglasa!...
Yana keldim bag'ringga, ey tog'!...

Folklor adabiyotida inson tuproqdan yaralganligini, hamda tuproqqa qaytishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Inson faqatgina o'zi tug'ilgan vatanda, kindik qoni to'kilgan zaminda orom topishi mumkin. Shoirning bu she'riy satrlarida ko'rishimiz mumkinki, o'z ona zaminida o'limni ixtiyor qilyapdi va shunda oromini topmoqlikni ta'kidlamoqda. Aslida lirik qahramon shahar shovqinidan odamlar gavjumidan qochib, o'zini ona tabiat bag'riga topshirmoqda, bunda shoirning yuksak badiiy tasviriy ifodasini ko'rishimiz mumkin.



Shoirning ijtimoiy lirika mavzusida yozilgan qator she'rlari borki, ular kitobxonni biroz o'yga ham toldirib qo'yadi. Ulardan birida jadidlarimizning bosh g'oyasi bo'lgan mustaqillik mavzusi ilgari surilgan. Shukur Qurbon she'riyatining o'ziga xosligi ham, qanday maqsadlarga xizmat qilishi va kitobxonlar qalbiga ziyo ulashishi ham uning ijtimoiyligida ko'rinadi. Shoirning ashori xalqining qalbini larzaga keltirmas ekan, elini ozod ko'rishni, yovga nafratini sochishga undamas ekan, u she'r sher emas, shoir nazdida bunday ko'rinishdagi bitik badiiylik kasb etmaydi. Bunday ijod namunasi umri qisqa bo'ladi, yuksak g'oyalar tarannum etgan she'riyat mangulikka muhrlanadi. Erk tuyg'usi hamma davrlarda ham insoniyatning azaliy orzusi, istagidir.

Bulbuli bo'lgandan ko'ra qullikning,
Men iti bo'laman Mustaqillikning –
Balki it kerakmas mustaqillikka,
Itning sadoqati kerakdir lekin.

She'rda muallif mustaqillik va erkinlikni qadrlashni va ularga sadoqatni ifodalaydi. Bulbul bo'lishdan ko'ra, mustaqillik uchun it bo'lishni afzal ko'rish, mustaqillikka bo'lgan sadoqatni ifodalaydi. She'rdagi bulbul obrazi tabiatan erkinlikni va go'zallikni ifodalagan, lekin u ko'pincha qafasda tasvirlanadi. Ozod Sharafiddinov aytganidek "Poeziya ham, umuman san'at kabi, voqelikni ko'zgudek faqat ustki tomonidan emas, balki mohiyati bilan aks ettiradi. Poeziyani ham, birinchi navbatda, inson taqdiri, inson qalbining tamannolari qiziqtiradi. Shu ma'noda poeziyadagi zamonaviylik – kundalik hodisalarga bevosita javobgina emas, balki hayotiy tendensiyalarning, prosesslarning ich-ichiga, mohiyatiga kira bilish hamdir. Poetik obraza ham, umuman badiiy obraz kabi konkret, individual, hissiy formada voqelikning muhim, xarakterli tomonlarini ifodalaydi, binobarin, poetik obraz dunyoni bilishga va shu orqali uni o'zgartirishga xizmat qiladi."

Shoir yozganidek, "bulbuli bo'lgandan ko'ra qullikning" degan fikri, erkin bo'lishni istasa ham, qafasdagi bulbul kabi, ba'zan shartli erkinlikni afzal ko'rmaslikni bildiradi. She'rdagi ikkinchi ramzlaridan biri bo'lgan it esa sadoqatning ramzi bo'lib, uning erkinligi cheklangan bo'lsa ham, u mustaqillikka xizmat qilishni anglatadi. Bu yerda it bo'lish mustaqillikka bo'lgan fidoiylikni, sadoqatni anglatadi. Oxirgi satrda bu fikrlar yanada ochib berilgan, ya'ni; "Balki it kerakmas mustaqillikka, Itning sadoqati kerakdir lekin,, satrlarida mustaqillik faqat erkinlikdan iborat emas, balki unga sadoqat va xizmat kerakligini, vafoning muhimligini ham ta'kidlamogda. Xulosa qilib aytish mumkinki, Shukur Qurbon tabiat go'zalliklarini tarannum etgan she'riyati, o'ziga xos ifoda tarzi, obrazlilik o'zbek she'riyatida peyzaj lirikasiga yangi ohanglar baxsh etdi. Uning mazmun mundarijasini boyitdi. Bu she'riyat shunisi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2018 y. 86-b.
2. Qurbonov Shukur Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2011y. 34-b.
3. Qurbonov Shukur Saylanma Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Mlliy kutubxonasi nashriyoti .Toshkent 2011y 213-b.
4. Sharafiddinov O. Zamon-qalb-poeziya. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2019 y 510-b.



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

О'ЗBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Elboyev Otajon Polvonquliyevich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro iqtisodiyot va menejment”

fakulteti 3-bosqich talabasi

Telefon: +998978512277

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jahon savdo tashkilotining maqsadi, vazifalari, unga a'zo mamlakatlar, shuningdek, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkiloti bilan iqtisodiy-moliyaviy a'loqalari, hamkorlikning bugungi kundagi holati bayon etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lganda uni qanday imkoniyatlar va ziddiyatli vaziyatlar, muammolar kutayotganligi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, iqtisodiy erkinlik, investitsiya, moliyaviy imkoniyatlar, iqtisodiy o'sish, raqobat, bojxona bojlari, proteksionizm.

Kirish. Har qanday mamlakatning asosiy iqtisodiy maqsadlaridan biri bo'lib mamalakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish tizimlarini nafaqat miqdor balki sifat jihatidan yanada oshirish, mamlakatda raqobat muhitini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari jahon bozoriga olib chiqarish va eksport hajmini oshirish hisoblanadi. Jahon bozoriga milliy mahsulotlarimizni olib kirish, xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalarini mustahkamlash, hamkor mamalakatlar bilan turli xil ziddiyatli muammolar jumladan, siyosiy, huquqiy hamda iqtisodiy muammolarni oldini olishda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish samarali imkoniyatlar eshigini oshib beradi desak adashmagan bo'lamiz.

Xo'sh Jahon Savdo Tashkiloti qanday tashkilot u qachon tashkil topgan uning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat, unga a'zo bo'lish mamlakatlarga qanday manfaatlar eshigini ochadi, unga a'zo bo'lish talablari nimalardan iborat, O'zbekiston va Jahon Savdo Tashkiloti o'rtasidaga hamkorlik qay holatda ekanligi, mamlakatimiz ushbu tashkilotga a'zo bo'lishining afzalliklari hamda kamchiliklari nimalardan iborat ekanligi to'g'risida bir qancha fikrlarimizni yoritib o'tish orqali tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun qanchalik manfaatli ekanligi to'g'risida bilib olamiz.

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) davlatlar o'rtasidagi savdoni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. Unga a'zo mamlakatlar soni 166 tadan iborat bo'lib, jahon savdosining 95 foizi mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi¹.

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) 1995-yil 1-yanvarda xalqaro savdoni tartibga solish hamda osonlashtirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir. U 1947-yildan beri amalda bo'lgan Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh kelishuvdan (GATT) paydo bo'ldi. Jahon savdo tashkilotining yaratilishi global savdoning yanada keng qamrovli va tizimli tizimini yaratishga qaratilgan chora tadbirlarning bir qismi edi. JSTning asosiy vazifalari:

1. Savdo bo'yicha muzokaralar: JST a'zo mamlakatlar uchun muzokaralar olib borish va savdo bitimlarini yaratish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi, ta'riflar va subsidiyalar kabi savdo to'siqlarini kamaytirish uchun tuzilgan va shaffof jarayonni ta'minlaydi.

2. Nizolarni hal qilish: JST a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo nizolarini hal qilishning rasmiy jarayonini ta'minlaydi, qoidalarga rioya qilinishini va kelishmovchiliklarning adolatli, tizimli tarzda hal etilishini ta'minlaydi.

3. Savdo siyosatini ko'rib chiqish: Tashkilot a'zo mamlakatlarning savdo siyosati va amaliyotlarini JST kelishuvlari va global savdo standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun muntazam ravishda ko'rib chiqadi.

¹ https://www.wto.org/english/thewto_e/thewto_e.htm - Jahon Savdo tashkilotining rasmiy internet sahifasi.



4. Savdo salohiyatini oshirish: JST rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam va ularning global savdo tizimida ishtirok etish qobiliyatini oshirish uchun treninglar ko'rsatish orqali ularning savdo salohiyatini yaxshilashga yordam beradi.

5. Savdo monitoringi: JST global savdo tendentsiyalari va iqtisodiy sharoitlarni kuzatib boradi, xalqaro savdoning umumiy holatini kuzatishga yordam beradi va tahlil va hisobotlarni taqdim etadi.

6. Mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni hamda rivojlanishni rag'batlantiradi.

7. Bandlikni oshirib, yashash xarajatlarini kamaytirish hamda turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

8. Xalqaro miqyosda biznes yuritish sarf-xarajatlarini qisqartiradi.

9. Endi rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beradi.

10. Atrof-muhit va salomatlikni qo'llab-quvvatlash, tinchlik va barqarorlikka erishishda a'zo mamlakatlarga yordam beradi¹.

Barchamizga ma'lumki mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq xalqaro iqtisodiy-moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishda juda ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shuningdek, juda ko'plab iqtisodiy-moliyaviy tashkilotlar bilan mustahkam a'loqalar yo'lga qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston 1992-yil sentabr oyida Jahon bankiga, 1992-yil aprel oyidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga, shu yilning sentabr oyidan boshlab Xalqaro valyuta fondi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganligi buning yaqqol misolidir. O'zbekiston hamda Jahon savdo tashkiloti o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha harakatlar 1994-yildan boshlangan va bugungi kunga qadar tashkilotga faqatgina kuzatuvchi sifatidagi darajasida qolmoqda. Bunga sabab tashkilotga a'zo bo'lish talablariga mamlakatimizdagi muhit to'laqonli javob bera olmasligi hisoblanadi. O'zbekiston ushbu tashkilotning to'laqonli a'zosi emasligi iqtisodiy, siyosiy va institutsional omillar bilan bog'liq. Buning uchun ba'zi asosiy sabablarni sanab o'tamiz:

- Iqtisodiy islohotlar va tuzilma: O'zbekistonda muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, uning iqtisodiyoti yuqori darajada markazlashgan va davlat nazorati ostida qolmoqda. JSTga a'zo bo'lish mamlakatlardan bozorga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashni, savdo to'siqlarini kamaytirishni va xalqaro savdo me'yorlarini qabul qilishni talab qiladi. O'zbekiston hali ham iqtisodiyotini o'tish bosqichida va liberallashtirishning bu sekin sur'ati to'liq a'zolikni kechiktirdi.

- Ichki siyosat va qonunchilik bazasi: O'zbekiston o'zining ichki siyosati va qonunchilik bazasini savdo bilan bog'liq qoidalar, intellektual mulkni himoya qilish va nizolarni hal etish mexanizmlarini o'z ichiga olgan JST standartlariga moslashtirishi kerak. Mamlakat bu sohada muvaffaqiyatga erishdi, ammo islohotlar davom etmoqda.

- Ikki tomonlama kelishuvlar: JSTga to'laqonli a'zo bo'lishdan oldin mamlakatlar boshqa a'zolar, xususan, yirik savdo hamkorlari bilan ikki tomonlama savdo shartnomalari bo'yicha muzokaralar olib borishlari kerak. Bu muzokaralar murakkab va ko'p vaqt talab qilishi mumkin, ayniqsa proteksionistik siyosatga ega mamlakatlar uchun. O'zbekiston bunday muzokaralarda ishtirok etgan, biroq hozircha barcha zarur kelishuvlarni yakunlagani yo'q.

- Siyosiy iroda va xalqaro munosabatlar: 2016-yildan buyon O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan ko'proq hamkorlik qilish yo'lida siljish kuzatilayotgan bo'lsa-da, JSTga to'laqonli a'zo bo'lish jarayoni ham ichki siyosiy qarshilikni, ham tashqi diplomatik muammolarni yengishni o'z ichiga oladi. Ushbu muammolardan ba'zilar manfaatlarini ba'zan JST me'yorlariga zid keladigan Rossiya, Xitoy va boshqa mintaqaviy kuchlar bilan munosabatlarni muvozanatlashdan iborat bo'lishi mumkin.

- Mintaqaviy savdo aloqalari: O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) kabi bir qancha mintaqaviy savdo tashkilotlarining bir qismidir va bu kelishuvlarni JST qoidalariga muvofiqlashtirish murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Mamlakat mintaqadagi ko'p tomonlama savdo muzokaralarida ham ishtirok etmoqda va mintaqaviy ustuvorliklarni JSTga a'zolik bilan muvozanatlash qo'shilish sur'atiga ta'sir etuvchi yana bir omil hisoblanadi.

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi mamlakat uchun bir qancha afzallik va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun tashkilotga a'zo bo'lish quyidagi imkoniyatlarni qulayliklarni keltirib chiqaradi:

1. Savdo va bozorga kirish yaxshilandi. JSTga a'zo bo'lish O'zbekistonga xalqaro bozorlarga chiqish imkonini beradi va uning tovar va xizmatlari butun dunyo bo'ylab yangi mijozlarga yetib borishiga yordam beradi. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va energetika kabi tarmoqlar

¹ https://www.wto.org/english/thewto_e/thewto_e.htm - Jahon Savdo tashkilotining rasmiy internet sahifasi.



uchun foydali bo'lishi mumkin.

2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. JSTga a'zo bo'lish, odatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishi mumkin bo'lgan biznes muhitini oldindan aytib beradi. Investorlar, odatda, JST qoidalarini va qoidalariga rozi bo'lgan, ularni barqaror va shaffof deb hisoblagan mamlakatlarga sarmoya kiritishga ko'proq tayyor.

3. Islohotlar va siyosatni takomillashtirish. A'zolik O'zbekistondan o'z ichki qonunlari va siyosatini jahon savdo standartlariga moslashtirishni talab qiladi. Bu intellektual mulk huquqlari, raqobat qonunchiligi va bojxona tartib-qoidalarini kabi sohalarda muhim islohotlarga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiyotda boshqaruv va samaradorlikni oshirishi mumkin.

4. Iqtisodiy o'sishning o'sishi. Jahon bozorlariga chiqish va savdoni erkinlashtirishning afzalliklari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, chunki o'zbek biznesi xalqaro miqyosda yanada raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Liberallashtirilgan iqtisodiyot innovatsiyalar va mahsuldorlikni oshirishni rag'batlantirishga intiladi.

5. Ishonchni oshirish. Qo'shilish O'zbekistonning xalqaro maydondagi ishonchini oshiradi. JST a'zosi sifatida O'zbekiston jahon savdo muzokaralarida o'z mavqei va nufuziga ega bo'lib, unga xalqaro savdo qoidalarini shakllantirishda o'z so'ziga ega bo'lish imkonini beradi.

O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi qulayliklar bilan bir qatorda ma'lum bir muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar ham mavjud. Bularni ham sanab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ichki ishlab chiqarishning, sanoatning zaifligi. O'zbekiston sanoati, ayniqsa global miqyosda raqobatbardoshligi past bo'lgan sanoat tarmoqlari xalqaro o'yinchilar tomonidan kuchaygan raqobat sharoitida kurash olib borishi mumkin. Mahalliy korxonalar xalqaro standartlarga javob bera olmasalar yoki samaraliroq xorijiy kompaniyalar bilan tenglasha olmasalar, qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

2. Qisqa muddatli iqtisodiy tanazzullar. JST qoidalariga moslashish jarayoni ichki iqtisodiyotda qisqa muddatli uzilishlarga olib kelishi mumkin, masalan, samarasiz korxonalarning yopilishi yoki ayrim tarmoqlarda ishsizlikning oshishi. Protektsionistik yondashuvdan ochiqroq iqtisodiyotga o'tish vaqtinchalik iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

3. Muvofiqlik xarajatlari. JST standartlariga javob berish uchun O'zbekiston islohotlar va infratuzilmaga, xususan, savdoni osonlashtirish, bojxona nazorati va intellektual mulkni himoya qilish kabi sohalarga sarmoya kiritishi kerak bo'ladi. Bu islohotlar, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodlar uchun qimmat va resurs talab qilishi mumkin.

4. Ijtimoiy va ekologik muammolar. Savdoni erkinlashtirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, bu ijtimoiy va ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, sanoat global talabni qondirish uchun ishlab chiqarishni ko'paytirsam. Mamlakat iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlik bilan muvozanatlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi, ayniqsa, iqtisodiy o'sish, savdoni liberallashtirish va xalqaro savdoda yuqori yutuqlarga erishish nuqtai nazaridan katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, mamlakat o'z iqtisodiyotida mavjud tartib qoidalarini, xalqaro savdo bilan bog'liq qonunlarini global standartlarga moslashtirish va zaif tarmoqlarga yetishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni yengish bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishi lozim. O'zbekiston xalqaro savdo bardosh bera oladigan, raqobatga chidamli tovar va xizmatlarga ega bo'lgan sharoitda bunday yirik tashkilotlarga to'laqonli a'zo bo'lishi lozim. Shundagina mamlakatimiz tashkilotga a'zolik olib keladigan imkoniyatlardan samarali foydalana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. 02.06.2023, PQ-181-son.

2. D.R.Ergashev. Milliy va jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 672b.

3. Avaz Olimov, Elyor Maxmudov, Namozali Xaydarov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar/Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2020. – 432b.

4. N.S.Ismailova, U.U.Shagzatov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. – 320b.

5. A.A.Isadjanov, N.S.Ismailova. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi. O'quv qo'llanma. – T.:



“Iqtisodiyot”, 2019. – 154b.

6. Doniyor Abduazizov. (2024). World Trade Organization and Uzbekistan: way to international economic integration. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 30, 25–35. <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/1247>.

7. <https://www.wto.org> - Jahon Savdo Tashilotining rasmiy internet sahifasi.

8. <https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

9. <https://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal.

10. <https://www.miit.uz> – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.



KREATIV IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISH OMILLARI

Sharipov Qudratbek Quraltayevich

Urganch davlat universiteti
magistratura bosqichi talabasi
sharipovqudrat@gmail.com


Annotatsiya

Mazkur maqolada kreativ iqtisodiyot tushunchasi va uning shakllanishiga oid nazariy masalalar tahlil qilinadi. Kreativ iqtisodiyot – innovatsiya, intellektual mulk va madaniy sohalarga asoslangan iqtisodiy model bo‘lib, zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda kreativ iqtisodiyotning an‘anaviy iqtisodiyotdan farqli jihatlari, uning asosiy tarkibiy qismlari va rivojlanish omillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy o‘lishga ta‘siri, raqamli texnologiyalar va startaplar bilan bog‘liqligi ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kreativ iqtisodiyotning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, intellektual mulkni himoya qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim omillar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, innovatsiya, intellektual mulk, raqamli texnologiyalar.

Kreativ iqtisodiyot – bu innovatsiya, ijodiy fikrlash va intellektual mulkka asoslangan iqtisodiy model bo‘lib, u madaniyat, san‘at, dizayn, media va axborot texnologiyalari kabi sohalarni qamrab oladi. Ushbu iqtisodiyotning asosiy maqsadi – ijodiy g‘oyalar va bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirishdir. John Howkins (2001) o‘zining “The Creative Economy” asarida kreativ iqtisodiyotni inson tafakkurining mahsuli bo‘lgan tovarlar va xizmatlar orqali iqtisodiy daromad hosil qilish jarayoni sifatida ta‘riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, kreativ iqtisodiyot madaniy industriyalar, dizayn, texnologiya va innovatsiyalar orqali rivojlanadi. Richard Florida esa “The Rise of the Creative Class” (2002) kitobida kreativ iqtisodiyotning rivojlanishini “kreativ sinf” tushunchasi bilan bog‘laydi. Uning ta‘kidlashicha, kreativ sinf vakillari (olimlar, muhandislar, dizaynerlar, san‘atkorlar, dasturchilar) jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Kreativ iqtisodiyot turli ijodiy va innovatsion faoliyat turlarini o‘z ichiga olgan keng tushuncha bo‘lib, madaniyat, san‘at, texnologiya va media kabi sohalarni qamrab oladi. Ushbu sohalar iqtisodiy rivojlanishning muhim qismi bo‘lib, ular intellektual mulk va ijodiy g‘oyalarga asoslanadi. Kreativ iqtisodiyot – bu ijodiy g‘oyalar, bilim va innovatsiyalar asosida iqtisodiy faoliyatni shakllantiruvchi model bo‘lib, asosan quyidagi sohalarni qamrab oladi:



(UNCTAD tasnifi bo'yicha kreativ sohalar tasnifi)



Metodologik nuqtayi nazardan, ijodiy, madaniy va kreativ industriyaga taalluqli sohalarni ajratish muammosi xorij hamda O'zbekiston amaliyotida ochiqlicigicha qolmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida kreativ industriya ulushini baholash hamda uning taraqqiyot tendensiyalarini tahlil etish maqsadida O'zbekistonda kreativ industriyaga taalluqli sohalarni aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholini ish bilan ta'minlash, ijodiy qobiliyatga ega iste'dodlarni hamda kreativ tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Butun dunyo, jumladan, kreativ industriyani yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqishda maktab davridan boshlab kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish bo'yicha ta'lim dasturlarini kengaytirish, shubhasiz, ustuvor vazifalardan biridir. Kreativ industriyani moliyalashtirishda qo'llaniladigan kraudfanding va fandrizing usullaridan tashqari, ijodiy soha vakillarining faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va samarali moliyaviy infratuzilma yaratilishi O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini diversifikatsiya qilishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Umuman, mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning dastlabki bosqichlari boshlangan. Masalan, aksariyat shaharlarimizda yoshlarning iqtidorini ro'yobga chiqarishga xizmat qilayotgan texnoparklar tashkil etildi. Natijada yurtimizda startaplar tobora keng joriy etilib, yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Bu quvonarli hol, albatta.

Kreativ iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi innovatsiyalar, intellektual mulk va madaniy sohalarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Uning asosiy afzalliklari – yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, iqtisodiy diversifikatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Shu sababli, davlat siyosati, ta'lim tizimi va texnologik infratuzilma kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kreativ iqtisodiyot – XXI asrning asosiy iqtisodiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun ta'lim, texnologiyalar, davlat qo'llab-quvvatlovi va mehnat bozori rivojiga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.10.2024 yildagi O'RQ-970-son
2. John Howkins. 2017. The Creative Economy: How people make money from ideas.
3. Richard Florida. 2003. The rise of the creative class: and how it's transforming work, leisure, community and everyday life.
4. <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>



MAVZU: O'ZBEKISTONDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH ORQALI TIBBIY SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI

i.f.f.d., PhD **Ishmanova Diana Nurmamadovna**
ORCID ID: 0009-0005-4801-5775

Annotatsiya: Mazkur maqoladada natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish orqali tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish, ijtimoiy sohani moliyalashtirish tartibi horij tajribasi asosida O'zbekistonda tadbiq etish hamda kutilayotgan natijalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish tizimini sog'liqni saqlash muassasalarida qo'llash xorijli olimlar tomonidan o'rganilganligi hamda moliyalashtirishda tibbiy sug'urta ahamiyati,

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini baholash ko'rsatkichlarini kengaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarur. Ayni paytda "Dasturiy byudjetlashtirish"ni joriy etish uchun zarur mexanizmlar aniqlashtiriladi, mazkur tizimning afzallik va kamchiliklari o'rganilib, joriy va yangi tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlarini aniqlash uslublari ishlab chiqiladi. Jumladan, amaldagi byudjet tasnifiga o'zgartirish kiritilib, davlat xarajatlarini dasturlar bo'yicha tasniflash joriy etish ko'zda tutilmoqda. "Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini shu yil 1-oktabrdan boshlab Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2025-yil 1-yanvardan Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy etish taklif etildi"¹. Bu esa natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishda tibbiy sug'urta mexanizmlarini tadqiq qilish masalalariga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida", 2020-yil 12-noyabrda PQ-4890-son "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustda 506-son "2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari mamlakatimizda ijtimoiy sohani moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Maqbul darajada moliyalashtirishning dolzarb masalalari xorijlik olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan va natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning sog'liqni saqlash sohasi moliyaviy barqarorligining ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan. Masalan, iqtisodchi olimlaridan T. Jurrien, A.B. Wildavsky, A. Schick, A.B. Robinson, M. Behn, M.P. Joe, Afanasev, A.M. Lavrov, N.A. Istomina S.G. Xabaev, A. S. Baraxovskiy, L. N. Bogdanov, I.S. Bukina, A. R. Kovalevskiy, I.V. Starubrovskayaning qator asarlarida tadqiq etilgan.²

O'zbekistonda ijtimoiy sohaning jumladan, sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish amaliyotining ayrim jihatlari N.X.Jumaev, A.N.Li, D.Pulatov, A.Yuldashev, G.A.Qosimova, K.Yu. Ernazarov, A.Y. Sherov, M.A. Jolayeva, I.A.Azizova, D.A.Raxmonovlarning ilmiy asarlarida tahlil qilingan.³

NYBning asosiy vazifasi davlat xarajatlarining maqsadli, samarali va aniq natijalarga yo'naltirilganligini ta'minlashdir. Bu yondashuvda davlatning barcha funksiyalari bo'yicha aniq ko'rsatkichlar va maqsadlar belgilanadi.

Davlat byudjetini shakllantirishda sarflangan mablag'lar ularni samarali taqsimlashga qaratilgan bo'ladi, bunda asosiy maqsad mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdir. Davlat

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/7525> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5-sentyabrda PQ-311-sonli "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

² urrien Toonen. Results-Based Financing in healthsare Developing an RBF approach for healthsare in different contexts: the sases of Mali and Ghana// 2012 KIT, Amsterdam,.

³ N.Jumaev, D.Rahmonov Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning natija mezonlarini shakllantirish "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil 3/2019 (№ 00041) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.



dasturlari va ularning natijalari tahlil qilinadi, ular bo'yicha monitoring o'tkaziladi, samaradorlik va natijaviylik baholanadi. Bu esa NYBda davlat faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini oshiradi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-son "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinganligi ham sog'liqni saqlash tizimida alohida tarixiy ahamiyatga egadir.

Qaror maqsadiga ko'ra tibbiyot myassasalarini moliyalashtirish natijaviylikka uzviy bog'langandir hamda aholiga qulaylik yaratish maqsadida, kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish uchun belgilangan muddatlarda ma'lum bir tibbiy ko'riklardan o'tish hamda oilaviy shifokorga yoki tibbiyot brigadasiga murojaat qilish talab etiladi. Bunda oilaviy shifokor davolash bemorni ko'rikdan o'tqazgach uni tashxislash standartlariga muvofiq tor soha shifokorlariga, agar zarur hollarda shifoxonalarga elektron yo'llanma beradi hamda bemor yo'llanma asosida tor soha shifokori tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi va shifoxonaga yotqiziladi. Belgilangan tartibga rioya etilmagan hollarda tibbiy xizmatlar pulli asosda amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida so'nggi o'n yillikda o'tkazilgan byudjet islohotlarining asosiy elementlaridan biri sog'liqni saqlash muassasalarida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish asosida amalga oshirimoqda. Sog'liqni saqlash muassasalarida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish doirasida byudjet sikli o'tgan byudjet siklida ma'qullangan tegishli yil uchun o'rta muddatli moliyaviy rejaning asosiy parametrlarini ko'rib chiqish, tashqi omillar va sharoitlarning o'zgarishlarini tahlil qilish, rejalashtirilayotgan yilning asosiy byudjet ko'rsatkichlariga kiritiladigan o'zgartirishlarni asoslashda aholining tibbiy ko'rsatkichlari, aynan qanday turdagi kasalliklar ortib borayotganligi, shuningdek, prognoz davrining kelgusi yillarga mo'ljallangan byudjet loyihalariga tuzatishlar kiritish yoki ularni ishlab chiqishdan boshlanadi.

Shunday qilib, navbatdagi moliya yiliga mo'ljallangan byudjet har yili yangilanadigan va bir yil oldinga suriladigan o'rta muddatli moliyaviy hujjatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bir tomondan, davlat siyosatining vorisiyligini va byudjetdan ajratiladigan mablag'larning taqsimlanishini oldindan belgilash imkoniyatini ta'minlaydi, boshqa tomondan esa ularga davlat siyosatining maqsadlari va ularga erishish shartlariga muvofiq yillik tuzatishlarni aniq belgilagan holda kiritish imkoniyatini beradi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish strategiyasi iqtisodiyotni rivojlantirish maqsad va mo'ljallari hamda ularga erishishning davlat tomonidan rejalashtirilayotgan samarali yo'llari va vositalarining kompleks tizimidir.

Kafolatlangan paket asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatishga nodavlat tibbiyot tashkilotlari ham jalb qilinishini xorij tajribalarida o'z aksini topmoqda. Bunda ajratilgan byudjet mablag'larining samaradorligi va natijadorligi Jamg'arma tomonidan doimiy monitoring qilib borilishi ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-son 12-noyabr 2021- yildagi Qarori.

2. <https://president.uz/uz/lists/view/7525> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5-sentyabrdagi PQ-311-sonli "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

3. Jurrien Toonen. Results-Based Financing in healthsare Developing an RBF approach for healthsare in different contexts: the sases of Mali and Ghana// 2012 KIT, Amsterdam, The Netherlands.

4. N. Jumaev, D. Rahmonov Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning natija mezonlarini shakllantirish "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019 yil 3/2019 (№ 00041)



Xudayberganov B.A

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi
Biznes va boshqaruv kafedrası, Menejment(MMB)
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizda keng ko'lamli iqtisodiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi xo'jalik sub'ektlari harakatlarini samarali muvofiqlashtirish va ularni bozor talablariga moslashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, xizmat ko'rsatish sohalarini samarali o'stirish va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishda marketing hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola marketingning rollari, maqsadlari va asoslari haqida tushunchalarni taqdim etadi.

Kalitso'zlar; marketing funksiyalari, vazifalari va tamoyillari

MARKETING FUNCTIONS, TASKS AND PRINCIPLES

Annotation: The execution of extensive economic transformations in our nation necessitates efficient coordination of the actions of economic agents and their alignment with market demands. Within a market economy, marketing plays a crucial role in the sales of produced goods, the efficient growth of service industries, and the establishment of competitive products. This article presents insights into the roles, objectives, and foundations of marketing.

Keywords: marketing functions, tasks and principles

Marketing funksiyasini korxonaning boshqa funksiyalaridan farqi shulardan iboratki, marketing funksiyalari xo'jalik subyektlari, uning mijozlari orasidagi ayirboshlash sotuv jarayonini amalga oshirish va tashkil etishga qaratilgandir. Shuning uchun ham marketing funksiyalari doimo o'zgaruvchan ehtiyojdagi talabni shakllanishi yaratilishi, rivojlanishida javobgarlikka egadir. Marketingning universal funksiyalari sotib olish, sotish, tashish, saqlash, standartlashtirish va baholash, moliyalashtirish, xavflarning oldini olishni va marketing axborotlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Biroq, zamonaviy marketing bozor ma'lumotlarini yig'ish to'plash va ushbu ma'lumotni tahlil qilish kabi boshqa funksiyalarga ega. Mahsulotni loyihalashtirish va rivojlantirishda yordam beradigan marketing funksiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Marketing funksiyalari quyidagi grafikda yaqqol o'z ifodasini topadi (2.1.1-chizma):



2.1-chizma. Marketing funksiyalari



Bozor haqida ma'lumot (axboroti). Iste'molchilarning ehtiyojlari istaklari va talablarini aniqlash. Shu asosda mahsulotni va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotish uchun qarorlar qabul qilish bo'yicha olingan ma'lumotlarni tahlil qilish – bu eng muhim vazifalaridan biridir. Tahlilning asosiy maqsadi tashkilotning ichki kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, maqsadli bozorning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va demografik holatini baholashdir. Ushbu ma'lumotlar bozor segmentlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozorni rejalashtirish. Bzorni rejalashtirish firmaning maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan jarayondir. Ushbu maqsadlar bozordagi ustunlikni yoki bozor ulushini kengaytirishni o'z ichiga olishi mumkin. Bozorni rejalashtirish funksiyasi ishlab chiqarish darajalari, belgilash qo'llab-quvvatlash (promotion) kabi turli harakatlarni amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi.

Ayirboshlash funksiyasi. Sotib olish va sotish – marketingda juda e'tiborli jarayondir unga ayirboshlash funksiyalariga kiradi. Ularning asosiy maqsadi mijozlarning talablarlarini qondirish uchun firma tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar yoki xizmatlarning yetarli miqdorni ta'minlashdir. Ayirboshlash jarayoni, reklama, shaxsiy sotish va savdoni maksimal darajaga yetkazish orqali qo'llab-quvvatlanadi..

Mahsulotni loyihalashtirish va rejalashtirish. Mahsulotning dizayni maqsadli bozorga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi raqobatbardosh bozor sharoitida mahsulot xarajatlari, bilan bir qatorda, uning dizayni, mosligi, shakli, uslubi va boshqa omillar ishlab chiqarish jarayonida qarorlar qabul qilishda katta ahamiyatga ega.

Fiziologik taqsimlash. fiziologik funksiyalar transport va saqlashni o'z ichiga oladi. Yuk tashish funksiyasi mahsulotlarni ishlab chiqarish joylaridan xaridorlarga qulay joylarga yetkazib berishni va saqlash vazifasini sotishgacha bo'lgan mahsulotlarni saqlashni o'z ichiga oladi..

Standartlashtirish va baholash . Standartlashtirish mahsulot ishlab chiqarishni oldindan belgilangan spetsifikatsiyalar asosida amalga oshirishni anglatadi. Bu mahsulotning sifat va miqdoriga mos kelishini ta'minlab, bir xillik va mustahkamlikka erishishga yordam beradi. Baholash esa, mahsulotlarni turli guruhlarga tasniflashni, ularni o'lchov, vazn va boshqa nazorat standartlari bo'yicha baholashni o'z ichiga oladi. Baholash narxlash qarorlarida ham yordam beradi, chunki yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar yuqori narxlarni talab qiladi.

Moliyalashtirish. Marketingning moliyaviy funksiyalari kanal a'zolariga yoki iste'molchilarga kredit berishni o'z ichiga oladi.

Xavflarning oldini olish. Xavfning oldini olish muhim marketing vazifalaridan biridir. Marketingning xavf-xatarlarini olish iste'molchilar kelgusida sotib olishlari mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar yaratish va sotishdan kelib chiqqan iste'mol xaridlari haqida noaniqliklarga ishora qiladi.


Qadoqlash va brendlash. Qadoqlash mahsulotga mo'ljallangan qadoqni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Qadoqlash va etiketlash hozirgi kunda reklama vositasi sifatida xizmat qiladi, brending umumiy Tovarnomivatovarbelgisini ajratadi. Xizmatko'rsatish sohasida ham brendlash juda muhim hisoblanadi.

Mijozlarni qo'llab-quvvatlash. Mijozlarni qo'llab-quvvatlash juda muhim vazifadir. Savdo bo'yicha maslahat, savdo-sotiqdano'ngmijozlarga shikoyatlar va uning tuzatishlar, kredit xizmatlari, texnik xizmat ko'rsatish va iste'molchilarga o'g'risidagim a'lumotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suv tozalash vositasi 7 yil davomida xizmat ko'rsatish kafolati bilan sotiladi va bu marketingning muhim vazifasi sifatida qaraladi.

Marketingning asosiy vazifalari. Marketing - bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish uslublarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotish muammolarini yaxlit, tizimli echish uslublarini, bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondashish, raqobatbardosh yangi tovarlarni vujudga keltirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish, kon'yunkturani o'rganish va prognoz qilish hamda ta'sirchan reklamani rivojlantirish masalalarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir.



Marketingni vazifalari quyidagi 3.1 – rasmda berilgandir.



3.1-rasm. Marketingni vazifalari

Bunga erishish uchun marketing quyidagi muhim vazifalarni bajarishi lozim:

- 1.Xaridorlar ehtiyojlarini aniqlash va o'rganish;
- 2.Narxni xaridorlarning ehtiyojlariga moslashtirish;
- 3.Talab va taklif haqida olingan ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish;
- 4.Tovarlarning reklamasini tashkil qilish va xaridorlarda tovarlarni sotib olishga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- 5.Tovar yaratish yoki sotish bilan bog'liq narx tadqiqotlarini o'tkazish uchun ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish;
- 6.Tovarni bozorga chiqarish jarayonidagi barcha xizmatlar haqida ma'lumotlar olish;
- 7.To'ldiruvchi va o'rnini bosuvchi tovarlar haqidagi axborotlarni yig'ish;
- 8.Tovarlarni bo'yicha talabni prognozlash va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish.

Marketingning asosiy vazifasi korxonaning mavjud va kelajakdagi imkoniyatlarini baholash, amalga oshirish va bozordagi talab va taklifni muvofiqlashtirishdir. Marketing yoki tadbirkorlik faoliyati maqsadli natijaga erishish uchun amalga oshiriladi. Marketing maqsadlari firmaning asosiy maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir.

3.1-jadval

Korxonaning asosiy maqsadi

Maqsadlar	Ko'rsatkichlar
Bozorni egallash	Bozor ulushi, aylanma, tovarni roli va ahamiyati, yangi bozorlarni qamrab olish
Rentabellik	Foyda, aylanmaga nisbatan rentabellik, shaxs kapitalini rentabelligi, umumiy kapitalni rentabelligi
Moliyaviy barqarorlik	Kreditga layoqatliligi, likvidligi, o'z-o'zini moliyalashtirish darajasi, kapitalni tuzilishi
Ijtimoiy maqsadlar	Ish bilan qoniqish, daromad darajasi va ijtimoiy himoya, ijtimoiy integratsiya, shaxsiy rivojlanish
Bozordagi pozitsiya va prestij	Mustaqilligi, imij, siyosiy sharoitga munosabati, jamiyatni tan olishi



Firmaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi

- bozorni ulushini oshirish;
- rentabellikni ta'minlash;
- moliyaviy barqarorlikni saqlash;
- ishlab chiqarishni ijtimoiy omillar bilan uyg'unlashtirish;;
- bozordagi mavjud mavqeyini mustahkamlash va obro'ni oshirish.

Marketing maqsadlarini tahlil qilish, ularga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni belgilashga yordam beradi. Meffert 1986 yilda marketingning uchta o'zaro bog'langan asosiy vazifalarini keltirgan:

- Bozor faoliyatini boshqarish va talabni tartibga solish bilan bog'liq vazifalar.
- Firma yoki korxonaning o'ziga tegishli vazifalar.
- Tashqi muhit va jamiyat tashkilotlari bilan bog'liq muammolar.

Marketing vazifalari orqali, marketing jarayonining har bir bosqichiga mos keladigan va doimiy ravishda tartibga solinadigan marketing funksiyalari shakllanadi.



OLIV TA'LIM MUASSASALARINING MAMLUKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA
TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
СТРАНЫ

THE IMPACT OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE ECONOMIC DE-
VELOPMENT OF THE COUNTRY

Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li -

Urganch Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi

egamov_sevinchbek@mamunedu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyat orqali ta'limning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Аннотация. В статье анализируется влияние высших учебных заведений на экономическое развитие страны. Подчеркивается вклад образования в экономику посредством подготовки высококвалифицированных кадров, научно-исследовательской и инновационной деятельности. В нем также содержатся предложения по дальнейшему улучшению взаимосвязи между высшим образованием и рынком труда, а также системой образования..

Abstract. This article analyzes the impact of higher education institutions on the country's economic development. It highlights the contribution of education to the economy through the training of highly qualified personnel, scientific research and innovative activities. It also discusses the relationship between higher education and the labor market, and makes proposals for further improving the education system.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, mehnat bozori, ta'lim sifati, zamonaviy texnologiyalar, universitet-sanoat hamkorligi, investitsiya, tadbirkorlik, startaplar, raqamli ta'lim, intellektual kapital, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова. Высшее образование, экономическое развитие, инновации, рынок труда, качество образования, современные технологии, сотрудничество университетов и промышленности, инвестиции, предпринимательство, стартапы, цифровое образование, интеллектуальный капитал, устойчивое развитие.

Key words. Higher education, economic development, innovation, labor market, quality of education, modern technologies, university-industry cooperation, investment, entrepreneurship, startups, digital education, intellectual capital, sustainable development.

Oliy ta'lim muassasalari tarixdan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos ahamiyat kasb qilib kelgan. Iqtisodiy rivojlanish va oliy ta'lim tizimining o'zaro bog'liqligi innovatsiyalar, inson kapitalining rivojlanishi, malakali ishchi kuchini tayyorlash kabi masalalarda namoyon bo'lishi mumkin. Oliy ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanishga dastlabki ta'sirlarini XI-XII asrlarga borib taqaladi, jumladan ushbu davrda dunyoning birinchi Bolonya (1008 yillar) va Parij (1150 yillar) universitetlarining tashkil topishi ilmiy tadqiqotlarning rivoj topishida asosiy bosqich bo'lib hisoblanadi. Ushbu ta'lim dargohlarida dastavval falsafiy, diniy va qonuniy bilimlar berilgan va vaqt o'tishi bilan ular son va sifat jihatdan rivoj topgan. Universitetlarning tarixiy rivojlanishining keyingi bosqichi bu XIV-XVII asrlar hisoblanadi sababi ushbu davrlarda ko'plab yangi universitetlar tashkil topishi bilan zamonaviy ilm-fan rivoji ortdi, jamiyat uchun yangi bilimlar ko'paydi va ushbu bilimlar asosida jamiyatning dolzarb muammolariga tadqiqotlar asosida yechimlar topila boshladi. Ayniqsa sanoatga doir yangi bilimlarning egallanishi umumiy iqtisodiy yutuqlarga erishishga olib bordi, mamlakatlarning iqtisodiy faravonligiga katta hissa qo'shdi.

Keyinki davr XVII-XVIII asrlar, ushbu davrda ilm-fanning yanada zamon talabiga moslashishi, innovatsiyalar bilan ilm-fan uyg'unligi iqtisodiyotda mavjud bir qancha dolzarb muammolarni yechimini bera boshladi. Bu davr yana shuningdek jahon talablariga mos kadrlarni tayyorlash bilan ham tarixga kirdi, endigi navbatda universitet bitiruvchilarida innovatrlilik qobiliyatlari yanada oshdi.

XVIII-XIX asrlarda jahon iqtisodiyotida keskin burulish qayd etildi albatta bu sanoat inqilobi edi, aynan universitetlar ushbu inqilobning asosiy sabablari qatorida turardi. Ilm-fan sohasida erishilgan



yutuqlar insonlarni agrar sohadan ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirdi. Tarixan olib qaralsa sanoatda asosiy 4 ta inqilobiy davr bo'lgan yani ko'mir, gaz, elektronika va yadro, internet va qayta tiklanuvchi energiya. Ushbu inqilobiy o'zgarishlarni barchasini asosini shubhasiz ilm-fan tashkil qiladi. Shuni qayd etish joizki ushbu davrlarda oliy ta'lim tizimiga talabning ortishi ishlab chiqarishning rivojlanishi va qishloq xo'jaligiga nisbatan ushbu sohada malakali kadrlarga talab oshganligi bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu davr yana shuni ko'rsatdiki ta'limga, ilm-fanga qilingan investitsiyalar mamlakatda katta iqtisodiy rivojlanishga olib keldi, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya kabi davlatlar buni amalda isbotlashdi.

Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra 2023 yil davomida OTMLar qamrovi yuqori bo'lgan mamlakatlarda nisbatan iqtisodiy rivojlanish yuqori bo'lgan. So'nggi yillarda global darajada oliy ta'lim tizimiga qamrab olish darajasi sezilarli darajada ortmoqda, jumladan asrimizning dastlabki yillarida ushbu ko'rsatkich atiga 19 %ni tashkil qilgan bo'lsa hozirda 40 % dan ortdi bu esa o'z navbatida oliy ta'limga bo'lgan yalpi talabning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Dunyo bo'yicha o'tkazilga bir qancha ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki oliy ma'lumotli insonlar o'rta ma'lumot egalariga qaraganda o'rtacha 55-60 % ko'p daromadga ega hisoblanadi.


Bugungi kunga kelib dunyoning rivojlangan mamlakatlari aynan universitetlarni rivojlanishi ortidan mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilmoqda. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblangan Janubiy Koreya tarixini ham o'rganadigan bo'lsak ushbu iqtisodiy rivojlanishning asosi oliy ta'lim ekanligini ko'rishimiz mumkin, misol uchun 1990 yillarda ushbu mamlakatda oliy ta'lim qamrovi atiga 29 %ni tashkil qilgan va 2020 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 95 %ga ko'tarildi va aynan mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi ham ushbu ko'rsatkich bilan uyg'unlikda ko'tarilgan.

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi bilan iqtisodiy rivojlanishning o'rtasidagi to'gridan-tog'ri ijobiy bog'liqliklar Afrika davlatlarida ham kuzatilgan. Afrika rivojlanish bankining olib brogan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki OTMLarga qamrov darajasining 1 %ga ortish mamlakatlar iqtisodiyotining 0.39% ga ijobiy o'zgarishga olib kelgan.

Yuqorida aytub o'tganimizdek oliy ta'lim muassasalari va iqtisodiy rivojlanish o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud hisoblanib OTMLar mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga quyidagicha bevosita va bilvosita ta'sir qilishi mumkin:

Inson kapitalini rivojlantirish orqali. Inson kapitali bu insonlarning ishchi kuchi sifatida tajriba va ko'nikmalarining qiymatini anglatadi va ushbu salohiyatni oshirishda ta'lim eng katta ahamiyat kasb qiladi. Iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblangan inson kapitalini rivojlantirishda universitetlarning o'rni katta hisoblanadi sababi OTMLar mutahassisliklar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshiruvchi ta'lim va tayyorgarlik beradi, ushbu jarayon o'z navbatida yuqori malakali ishchi kuchuni yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Yetuk kadrlar o'z navbatida ishlab chiqarish mahsuldorligini oshiradi va innovatsiyalarni yaratishga turtki bo'ladi. Innovatsiyalarning asosi albatta ilmiy tadqiqot markazlari hisoblanadi va aynan universitetlar ushbu markazlar vazifasini bajaradi. OTMLar sanoat bilan birgalikda hamkorlik qilishlari natijasida zamon talabiga mos ilmiy izlanishlarni olib boradi bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi. Hozirda iqtisodiyotning bosh muammosi bu albatta resurslar yetishmovchiligi hisoblanadi, aynan yuqori malakali ishchi kuchi texnologik o'zgarishlarga moslashuvchan hisoblanadi va global o'zgarishlarga tez moslashishi oqibatida iqtisodiy natijalarni amalga oshirish nisbatan tez amalga oshiriladi. Iqtisodiyotda inson kapitali milliy boylikning asosiy qismini boshqaradi. Shu sababli, barcha tadqiqotchilar inson kapitalini jamiyatning eng muhim resurslaridan biri deb hisoblaydilar, u tabiat yoki boylikdan ham kuchliroqdir.

Barqaror o'sish muhitini yaratishda muhim afzallik shundaki, mamlakat sog'liqni saqlash, ilm-fan, boshqaruv, ta'lim va boshqa sohalarda yuqori sifatli inson kapitaliga ega. Bu yerda inson kapitali komponentlari asosan insonlardan iborat bo'lsa-da, hozirgi kunda asosiy komponent — ijodiy, bilimli va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega shaxsdir. Ko'plab mamlakatlarda inson kapitali rivojlanish suratini, iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyotni belgilaydi. Inson kapitali va iqtisodiy o'sish bog'liqliklarini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin (1-chizma).



1-chizma. Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Innovatsiya va texnik taraqqiyot orqali. Universitetlarning iqtisodiy rivojlanishining ikkinchi asosiy unsuri bu mamlakatning sanoat sohasida katta iqtisodiy o'sishga olib keluvchi ilg'or tadqiqotlarda asosiy subyektlardan biri ekanligidir. OTMLar tomonidan amalga oshirilgan ixtirolar, innovatsiyalar tijoratlashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotda mavjud Tovar va xizmatlarni diversifikatsiyalashga olib keladi. Hozirgi kunda universitetlarda tashkil qilinayotgan startaplar talaba yoshlarni hali universitetlarni bitkazmay turib tadbirkorga aylanishiga va hudud iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'sha boshlaydi. Bunday amaliy ishlarga hozirda mamlakatimiz universitetlarida faoliyai yo'lga qo'yilayotgan "biznes inkubator", "biznes klinika", "biznes akseleryator" kabi loyihalarni misol qilishimiz mumkin.

Tog'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali. Universitetlardan yetishib chiqqan malakali ishchi kuchining mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda o'rni katta, bunga asosiy sabab katta investitsiyalar kiritishning asosiy ishtirokchilari hisoblangan transmilliy korporatsiyalar asosan malakali ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarni tanlaydi. Yana shuningdek universitetlarning sanoat bilan hamkorliklari, ilmiy tadqiqot, loyihalarni amalga oshirishi ham ushbu bilim va ko'nikmalardan foydalanish istagida bo'lgan xorijiy hamkorlarni o'ziga jalb qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish va raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilm-fan va texnologik taraqqiyotning iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni kengaytirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim muassasalari bilan sanoat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, iqtisodiy o'sish jadallashib, mamlakatning global raqobatbardoshligi ortadi. Shu bois oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va investitsiyalarni oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon banki ma'lumotlari (2023). <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
2. OECD. (2021). *Education at a Glance 2021: OECD Indicators*. OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org/education/education-at-a-glance/>
3. OECD. (2020). *Education Policy Outlook: Korea*. OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org/korea/education-policy-outlook-korea/>
4. African Development Bank. (2020). *Higher Education in Africa: Recommendations for Strengthening Regional Partnerships*. Retrieved from <https://www.afdb.org/en>
5. Egamov.S.M (2024). Mintaqada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatdagi o'rni. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil №7 (31-07-2024). 29-b.



NAVOIY VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING MIQDOR VA SIFAT KO'RSATKICHLARINI QIYOSIY STATISTIK TAHLILI

Elov Olimdjon Komilovich,

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyatida kichik biznesning miqdor ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, sifat ko'rsatkichlari o'zgarishlarning qiyosiy tahlili asosida o'rganilib, viloyatda kichik biznesni rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar baholanilgan.

Аннотация: В данной статье изучены изменения количественных показателей малого бизнеса в Навоийской области, на основе сравнительного анализа изменений качественных показателей. А также дана оценка условий, созданных для развития малого бизнеса в регионе..

Abstract: In this paper studied changes in quantitative indicators of small businesses in Navoi region, based on a comparative analysis of changes in qualitative indicators. As well as assessed conditions created for the development of small businesses in the region.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, variatsion kenglik, o'rtacha kvadratik chetlanish, faollik darajasi, yashovchanlik koeffitsienti.

Ключевые слова: Малый бизнес, размах вариации, стандартное отклонение, уровень активности, коэффициент выживаемости.

Key words: Small business, variation width, standard deviation, activity level, survival coefficient.

Kichik va o'rta biznes zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili bo'lib, jozibali va ulkan innovatsion tizimni shakllantirishning asosi hisoblanadi [Cibela, 2016]. Bu esa o'z navbatida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy taraqqiyotga erishishdagi muhim rolini jahon iqtisodchi va siyosatchilari tomonida bir ovozdan qabul qilinishiga sabab bo'lmoqda. Natijada sohaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ochib berish zarurati kichik va o'rta biznes sektorini iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan soha sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi [Avasilicai, 2009].

Kichik korxonalar iqtisodiy rivojlanishning muhim katalizatori hisoblanib, har qanday milliy iqtisodiyotning strategik maqsadlariga erishishida salmoqli hissaga egaligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tayanchi ekanligi ta'kidlanadi [Druker, 2009]. Umuman olgan kichik biznes dinamik va moslashuvchan xususiyatlarni o'zida jamlaydi va iqtisodiyotning sog'lomligi esa aynan kichik korxonalar soni dinamikasi hamda ularning bozordagi muvaffaqiyatiga bog'liq hisoblanadi.

Shu sababdan Yangi O'zbekistonni barpo etishda kichik biznesning imkoniyatlaridan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" [Taraqqiyot Strategiyasi, 2022] masalalari muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda Navoiy viloyatida kichik biznes sub'ektlari taraqqiyot darajasini ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining statistik tahlili qarab chiqildi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari o'zgarish dinamikasida barqarorlik darajasi deyarli bir xil qiymatga ega, ya'ni variatsion kengliklar nisbatini 1:1,15 ni tashkil qilgan bo'lsa, o'rtacha kvadratik chetlanishlar qiymatlari nisbati 1:1,14 ni tashkil qilmoqda. Natijada standart ko'rsatkichning deyarli bir xil qiymatga ega bo'lgan. Faqat maksimal qiymatni ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlarida 2022 yilga to'g'ri kelishi 2023 faollik darajasini pasayishiga sabab bo'lgan (1-jadval).

1-jadval

Navoiy viloyatida kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'zgarishlarning statistik tahlili natijalari

	Faoliyat ko'rsatayotgan	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatmayotgan	Yangi tashkil etilgan	Tugatilgan
Maksimum	22844	26014	6475	7129	2628
Minimum	5253	5738	39	621	446
Variatsion kenglik	17591	20276	6436	6508	2182
O'rtacha kvadratik chetlanishi	6410,6	7337,7	1564,5	2106,3	666,2
Standart ko'rsatkich	2,7	2,8	4,1	3,1	3,3




Ammo, Faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes sub'ektlari sonida nobarqarorlik oshmoqda. Tahlilni amalga oshirilayotgan davrda faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes sub'etlari soni 39 birlikdan 6475 birlikka qadar oshgan, variatsion kenglik 6436 ni tashkil qilgan. O'rtacha kvadratik chetlanishning 1564,5 birlikni tashkil qilgani holda minimal qiymatga nisbatan 40,1 barobarga yuqoriligi fikrimizni asoslaydi. Standartlashtirilgan ko'rsatkich ham qolganlariga nisbatan yuqori ekanligi tebranuvchanlikning nobarqarorligidan dalolat beradi.

Tugatilgan hamda yangidan tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari soni bo'yicha aniqlanilgan maksimal qiymatlar nisbati 1:2,71, minimal qiymatlar nisbatini 1:1,39 ni tashki qilganligi tugatilgan kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'sish sur'atini nisbatan pastligini ko'rsatadai. Standartlashtirilgan ko'rsatkichning tugatilgan va yangidan tashkil qilingan kichik biznes sub'ektlarida mos ravishda 3,1 va 3,3 birlikka teng bo'lishi, aynan tugatilgan kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'zgarishlarning nobarqarorligi va keskinligini asoslaydi.

Natijalarga ko'ra viloyatda kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'zgarishlarning dinamikasida o'ziga xos tendentsiyalar mavjud. Faoliyat ko'rsatayotgan va ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'zgarishlar deyarli bir xil, biroq, ulardagi o'sish va pasayishlarning turli davrlarga to'g'ri kelishi faollik darajasi o'zgarishlarini keltirib chiqargan. Tugatilgan va yangidan tashkil qilingan kichik biznes sub'ektlari sonidagi o'zgarishlar viloyatda kichik biznes sub'ektlari yashovchanlik koeffitsientidagi o'ziga xosliklarni belgilab bergan.

Viloyatda kichik biznes sub'ektlari faollik darajasini qiyosiy tahlilini amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlarni qarab chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Navoiy viloyatida kichik biznes sub'ektlari faollik darajasini o'zgarish dinamikasi

Viloyatda faollik darajasining nisbatan yuqori bo'lishi, kichik biznesni ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ulushini pastligi sabablarini oydinlashtiradi. Ya'ni, ulushni pastligi kichik biznesni qo'llab – quvvatlash, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarning past emas, balki nisbatan yuqori ekanligini asoslaydi. Ulushning past bo'lishi viloyatning sanoatning taraqqiyotganligi hamda yirik sanoat korxonalarini joylashganligi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.


Ba'zi yillardagi pasayishlarni hisobga olmaganda 2019 yilga qadar faollik darajasini oshishi kuzatilgan bo'lib, mamlakat miqyosida 84,7 foizdan 95,2 foizga, viloyat miqyosida esa 91,5 foizdan 99,6 foizga qadar oshishi ta'minlangan va o'rtacha farqning qisqarishi kuzatilgan. 2020-2023 yillarda deyarli o'zgarish kuzatilmaydi, biroq o'rtadagi farqni deyarli yo'qolishi kuzatiladi. 2024 yil birinchi yanvar holatiga esa ko'rsatkichlar keskin pasayib, mamlakat miqyosida 67,8 foizni, viloyat miqyosida 75,1 foizni tashkil qilgan.

Yashovchanlik koeffitsientidagi o'zgarishlar yuqorida keltirilgan natijalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladi. Umumiy tendentsiyada yashovchanlik koeffitsientidagi tebranishlar mamlakatdagi o'zgarishlarga mos kelmoqda, ammo o'ziga xosliklar ham kuzatiladi. Jumladan, 2010 yilda viloyatda yashovchanlik koeffitsientining 16,1 foizga ega bo'lishi mamlakatdagiga nisbatan 2,7 barobarga past



bo'lishiga sabab bo'lgan, bo'lsa 2011 yilda 45,8 foizga etib 9,0 foizga oshib ketishi ta'minlangan.

2012 yilda ikkala ko'rsatkich ham pasaygan ammo ijobiy farq saqlanib qolingan, faqat 2013 yilda viloyatda kichik biznes sub'ektlari yashovchanlik koeffitsientining -0,8 foizni tashkil qilishi, ya'ni yangidan tashkil qilingan kichik biznes sub'ektlari soniga nisbatan tugatilganlar sonini yuqori bo'lishi kuzatilgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Navoiy viloyatida kichik biznes sub'ektlari yashovchanlik koeffitsienti o'zgarish dinamikasi

Kichik biznes sub'ektlari yashovchanlik koeffitsientining keskin va ijobiy o'sish sur'atlari 2017 yildan keyingi davrdagi to'g'ri kelib, mazkur jarayon mamlakat darajasida 2020 yilga, viloyat darajasida esa 219 yilga qadar davom etgan. Natijada, ushbu davrga qadar viloyatda kichik biznes sub'ektlari yashovchanlik koeffitsienti mamlakat darajasidan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2020 yildan keyingi davrda past bo'lishi kuzatilgan. 2021 yildagi keskin pasayishning ma'lum qismi 2022 yilda qoplagan bo'lishiga qaramasdan 2023 yilda yana pasayish kuzatilgan.

Umumiy hisobda viloyatda kichik biznes sub'ektlarini muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ulushining pastligicha qolishi, soha rivojini ta'minlash bilan bog'liq choratadbirlardagi oqsoqliklar emas, balki yirik biznesning ustunligi hisobiga bo'lgan. Chunki faollik darajasi hamda yashovchanlik koeffitsientlari ba'zi katta farqlarni hisobga olmagandan umumiy tendentsiyaga mos keladi va ayrim holatlarda yuqori bo'lish holatlari kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cibela Neagu, (2016), The importance and role of small and medium-sized businesses, Theoretical and Applied Economics, XXIII, (3(608), Autumn), 331-338.
2. Avasilicai, S. (coord.), 2009. Entrepreneurship: applied research, Cluj-Napoca: Tedosco.
3. Druker, 2009. Innovation and Entrepreneurship, New York: Harper Collins.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-Son Farmoni



TOPIC: ADVANTAGES OF RESULTS-ORIENTED BUDGETING IN HEALTH INSURANCE.

PhD Ishmanova Diana Nurmamadovna

ORCID ID: 0009-0005-4801-5775

Abstract: This article discusses the advantages of results-oriented budgeting, the application of results-oriented budgeting in the development of budget projects, the main task of results-oriented budgeting, and the purpose of health insurance.

Keywords: Results-oriented budgeting and expected results from health insurance.

The current and developing economic activities have highlighted the need to develop a system of economic development aimed at increasing the efficiency and effectiveness of economic activities and achieving the desired results. The annual increase in government spending makes it difficult to reduce them from the point of view of economic growth.

The main task of the ROB is to ensure that state spending is directed towards efficiency, effectiveness, and tangible results. This approach requires clear indicators and indicators for all state functions.

The funds spent on the creation of the state budget are focused on their effective distribution, this is the main purpose of the project. Explain socio-economic development.

The state's projects and their results are evaluated, which are based on the actions of the supervisor and the results. This increases the transparency and accountability of the ROB's public activities.

Economic benefits of performance-based budgeting:

Performance-based budgeting is a method of allocating resources among departments in a way that directs expenditures to specific departments. It is a way of making the system of budgeting waste-free and results-oriented.

Marc Robinson is a leading researcher in the field of public administration and public policy. Robinson has developed and published a number of papers on the development of results-oriented public administration and the effectiveness of public policy¹.

Robert D. Behn is a well-known olil of increasing the resultdori of the public sector and byudjet bopen beaictl. He conducted extensive research on improving the efficiency and effectiveness of public administration, as well as the development of a results-oriented management system.

John Mikesell is a leading figure in the study of social theory and public policy. His work examines the impact of a result-oriented social system on economic performance, public policy, and the development of public services.


The results of these studies are the result of the work and research aimed at improving the quality of life, and their work has made a great contribution to the development of the theoretical and practical foundations of the state and the development of the social sphere. You can study the work of these people and have a deep understanding of the results-oriented approach.

Result-oriented budgeting (ROB) is an efficient and effective way to reduce government spending. This approach ensures that public spending is clearly targeted to the elderly, and that it is transparent and proportionate, thereby contributing to economic growth. In this regard, the impact of the ROB on the state economy is to increase efficiency, increase productivity, and ensure that the state's financial system operates without waste.

It is the responsibility of the elders to understand the final outcome of such an economic crisis, focusing only on the positive behavior of the people affected by it. It is necessary to take into account the economic development of the country, the level of economic development, and the level of economic development. In fact, the final result of a nationally oriented economy is directly related to the real cost of government spending, its structural structure, and the direct, economical, and efficient use of government resources.

Results-oriented leadership is the pursuit of the ultimate goal of achieving the following intermediate results: (1 picture)

1 Robinson, M. (2007). "Performance Budgeting: Linking Funding and Results."



The analysis of Figure 1, which reflects its type, suggests that these results are a strategic improvement of the state's spending and that their results will affect the development of the development of the economy through the development of the economy and the development of the economy.

The adoption of the Resolution of the Head of State No. PD-311 of September 5, 2024 "On the Procedure for the Establishment of State Medical Insurance Institutions" has a historical significance for the healthcare system. According to the decision, the creation of a health insurance system is an integral part of the implementation of health insurance policies, which is aimed at creating a comfortable environment for the elderly population, ensuring the availability of health services included in the guaranteed package, and ensuring the availability of health insurance for the elderly. It is recommended to consult a doctor or a health care professional before taking the test. Such a primary care physician shall examine the patient and refer it to the appropriate network of doctors for diagnostic standards, and if necessary, to hospitals, either electronically or by mail, or to the main network of doctors for examination and treatment, and to the hospital. The amount of the service fee will be paid to the person who complies with the established procedure.

3. Григорьев Д.В. Внеурочная деятельность школьников. Методический конструктор: пособие для учителя [Текст] / Д.В. Григорьев, П.В. Степанов. — М.: Просвещение, 2010. — С. 200- 223.
4. Эргашева Д. Методика применения игровых технологий на уроках русского языка // Current approaches and new research in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 77-81.



О‘QUVCHILAR IJTIMOIIY FAOLLIGINING GENDER FARQLARI

Yaxyayeva Sojida Abduraximovna

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning ta‘lim va ijtimoiy faoliyatidagi gender farqlarda sezilarli ko‘rsatgichlari, ularda ko‘p jihatdan ayollarning ustunligi namoyonligi, ayollarning ta‘lim olishida, jamiyatdagi faoliyatida o‘rinlarini yaxshilash lozimligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, ta‘lim, fan, texnologiya, gender tenglik, munosabat, taraqqiyot, tizim.

Insoniyat hayotining qay darajada kechishi, jamiyatning rivojlanib zamonaviy yaxshi hayot tarzi tomon rivojlanish sari qo‘yilayotgan qadamlar, qolaversa, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar albatta ko‘p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari – mehnat faoliyati, oila, mahalla, o‘qish, muloqot va boshqa turli jarayonlarni boshqarib keladi. Bugungi kunda faol iste’molda bo‘lgan gender so‘zining tushunilishi va qo‘llanish holatlaridagi noto‘g‘ri talqin va tasavvurlar mavjudligini aytish joiz. Xususan, genderni ayollar mavzusi yoki ularning ustunligiga oid tushuncha deb qarash kuzatiladi. Albatta, bu to‘g‘ri emas. Gender – bu xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti hamda faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati ekanligini anglashimiz lozim [1]. Gender farqlar hamda o‘xshashliklar ta‘lim jarayonida qiz va o‘g‘il bolalar o‘quv faoliyatidagi o‘xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni samaradorligini ta‘minlashga yordam beradi. U yoki bu jinsga mansublik o‘quvchi shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi [2]. Qiz va o‘g‘il bolalar orasidagi gender farqlar va o‘xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan tadqiqotlar amalda gender pedagogikasi hamda psixologiyasida bir qadar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo‘nalishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jinsga asoslangan ta‘lim-tarbiya – o‘quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta‘sir ko‘rsatadigan ta‘limiy-tarbiyaviy, ma‘rifiy vositalar yig‘indisidir. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida gender farqlar va o‘ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e‘tirof etilmoqda. Ta‘lim jarayonida gender farqlarga oid o‘ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta‘lim natijasining samaradorligini ta‘minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislarga ayon bo‘lmoqda [6].

Ta‘lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma‘naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta‘lim sohasiga yil sayin katta e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta‘lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta‘lim muassasalaridan tortib oliy ta‘limning yuqori bosqichlarigacha bo‘lgan bo‘g‘inlar zimmasiga yuklatilgan. Gender faoliyatini belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat [3]:

Gender faoliyatining ijtimoiy tuzilishi nazariyasi.

Gender tizimi nazariyasi.

Gender faoliyatiga ijtimoiy jihatdan bo‘lgan yondashuv quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: biologik nuqtayi nazardan jins muayyan jamiyatda qaror topgan jinsga xos bo‘lgan vazifalar va o‘g‘il hamda qiz bolalarning o‘ziga xos xatti-harakatlari, faoliyati, o‘zaro hamkorligining ijtimoiy me‘yorlari bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman ko‘rinishlari.

O‘g‘il va qiz bolalarning faoliyatida o‘zaro hamkorligi tushunchasi R.Xof tomonidan kiritilgan bo‘lib, o‘g‘il va qiz bolalarning faoliyatida ma‘naviy-madaniy qiyofalarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga muvofiq ravishda gender muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning oliy ta‘lim tizimida talabalar tomonidan o‘rganilishi gender yondashuv asosida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ko‘mak beradi.[4] Gender nazariyasi ta‘lim jarayonida o‘g‘il bolalar va qizlarga xos xususiyatlarni farqlash masalasiga turli nuqtayi nazardan yondashadi. Bu yondashuvda jinslar o‘rtasidagi asosiy farqlar ijtimoiy o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi. Ushbu farqlar jamiyatda ijtimoiy institutlar, me‘yorlar va madaniy qarashlar vositasida shakllangan. Bunda gender farqlarning ijtimoiy jihatlarini muhim ahamiyatga egadir. Gender tabaqalashtirish jamiyat va ta‘lim tizimida ijtimoiy-pedagogik jihatdan insonparvarlik tizimini rivojlantirishga asos bo‘ladi.



Shuni takidlab o'tish lozimki, dunyoning ko'p mamlakatlarida ayollar kollej va universitetlarga o'qishga kirishda ham, tugatishda ham erkaklardan ustundir. Shu bilan birga, jiddiy gender tafovutlar o'qish faoliyati sohasida qayd etilmoqda. Umuman olganda, gender muammolari ayol va erkaklarning hayoti, jamiyatdagi vaziyat, o'zaro bog'liqlik, resurslardan foydalanish va ulardan foydalanishdagi farqlar, ularning harakat va o'zgarishlarga, aralashuvlar va siyosatlariga qanday munosabatda bo'lishlarini o'z ichiga oladi.

Psixologlarning fikriga ko'ra, ayollarda verbal intellekt erkaklarnikiga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Nutq funksiyalarini rivojlantirishda ayollarning ustunligi bolalikdan boshlanadi, qizlar o'qish ko'nikmalarini o'g'il bolalarga qaraganda erta egallaydilar. Keyinchalik ham qizlar va ayollarning nutqi, odatda, so'z boyligi va grammatik tuzilishi bo'yicha boy hisoblanadi. Ayollar erkaklarga qaraganda verbal xotiraning yuqori ko'rsatkichlarini ko'rsatadilar, bu ayollarda erkaklarnikiga nisbatan ma'lumot yarim sharlar o'rtasidagi uzatishning yuqori tezligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [5].

Endi nutq faoliyati bo'yicha gender farqlarni solishtiradigan bo'lsak, 1988-yilda Janet Xayd va Marsiya Lin nutq qobiliyatidagi gender farqlari bo'yicha tadqiqotlarning meta-tahlilini o'tkazdilar [2]. Ushbu tadqiqotda bolalar va kattalar ustida olib borilgan. Umuman olganda, turli xil sinov usullari bilan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, ular erkaklar va ayollar o'rtasidagi nutq qobiliyatlarida hatto kichik farqlar yo'q degan xulosaga kelishdi.

Gender stereotiplarga ko'ra, o'g'il bolalar va erkaklar matematik faoliyatda qizlar va ayollarga qaraganda qobiliyatliroqdir degan farazlar juda ko'p. Ilmiy tadqiqotlar bu fikrni rad etadi. Shunday qilib, 1990-yilda uch milliondan ortiq ishtirokchilarni qamrab olgan tadqiqotlarni umumlashtirgan meta-tahlil shuni ko'rsatdiki, umuman olganda, o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida matematik topshiriqlarning muvaffaqiyatida sezilarli farqlar yo'q. lekin shu bilan birga, kichik gender farqlari yoshga qarab kamayishi aniqlandi, o'g'il bolalar va qizlar matematik faoliyat tushunchalarini teng darajada yaxshi o'zlashtiradilar [3].

Bundan tashqari o'quvchilarda ijtimoiy faoliyatdagi gender farqlarni ham solishtiradigan bo'lsak, qizlarda ijtimoiy qatlamda faollik ustunroq bo'lib, mehnat qilish va boshlangan ishni oxirigacha yetkazib qoyishda iroda ustunlik qilmoqda.

Hissiy faoliyat jihatidan o'rganilgan manbalarga qaralganda ayollarning hissiy-emotsional ustun shaxsliklari ko'zga tashlanmoqda. Biroq hissiy faoliyat jarayonlaridagi agressiyada erkaklarda ham agressiya yuqoriligi jihatlarini ko'zga tashlanmoqda. Xususan, 1984-yilda Janet Xayd tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil shuni ko'rsatdiki, tajovuzkor xatti-harakatlardagi o'zgarishlarning atigi 5 % gender farqlari bilan bog'liq va bu farqlar yosh o'tgan sari kamayib borishi ham mumkin [1]. Ya'ni agressiyada ayollarning kam foiz bilan ustunligini ko'rinsa-da, erkaklar va ayollar agressiv jarayondagi farqlari unchalik katta foizlar bilan farq qilinmas ekan.

Narsalarni va fazoni idrok qilish qobiliyatlarini o'rganishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki erkaklar foydasiga ustunlik bilan gender farqlari mavjudligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning ta'lim va ijtimoiy faoliyatidagi gender farqlarda sezilarli ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularda ko'p jihatdan ayollarning ustunligi namoyon bo'lmoqda. Agar ayollarni ona misolida oladigan bo'lsak, har bir o'g'il qizlarning ta'lim olishi, jamiyatda shaxs sifatida o'rin olishi ularga, ya'ni ayollarga bog'liqdir. Shu boisdan ham ayollarning ta'lim olishida, jamiyatdagi faoliyatida o'rinlarini yaxshilash lozim. Lekin ta'lim sohasida gender tenglikni unutmazlik va har bir o'quvchining qobiliyatiga alohida yondashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oyewumi, Oyeronke (2002). Conceptualizing gender: the eurocentric foundations of feminist concepts and the challenge of African epistemologies

2. Бёрн Шон. Гендерная психология. Прайм-Еврознак, 2002.

3. Nanda, Serena. Gender Diversity: Crosscultural Variations. Waveland Pr Inc, 1999. ISBN 978-1577660743.

4. Weatherall, A.. Gender, Language and Discourse. Routledge, 2005. ISBN 9781134701926.

5. Рахимова, И. И. (2014). Факторы формирования психологической зависимости от компьютерной игры в подростковом возрасте. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1-2), – С. 221-226.

6. Рахимова, И. И., & Османова, Д. (2019). Влияние интернета на нашу жизнь. Студенческий вестник, (3-1), – С. 43-45.



TEKNOLOGIK TA'LIM FANI O'QITUVCHILARINING UMUMMUHANDISLIK
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEKNOLOGIYALARI

Umarov Abdurasul Abduraximovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti, PhD

Telefon: +998903170684

umarov_aa@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining umummuxandislik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Xususan, ta'lim jarayoniga modulli yondashuvni joriy etish, kompyuter dasturlari va raqamli vositalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish usullari, ularning ta'lim sifatiga va mutaxassislarni tayyorlashga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola yakunida zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash uchun ta'lim dasturlarini doimiy takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Texnologik ta'lim, umummuhandislik kompetensiyalari, modulli yondashuv, CAD tizimlari, 3D modellash, 3D chop etish, robototexnika.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari jadal rivojlanmoqda va pedagogika sohasi ham bundan mustasno emas. Oxirgi o'n yillikda global raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar fonida ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini modernizatsiya qilish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Shu jumladan, texnologik ta'lim fani o'qituvchilarini tayyorlashda ham yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Bugungi kunda pedagogika faqatgina fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni emas, balki yangi texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ham talab etadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim fani o'qituvchilari uchun muhim ko'nikmalardan biri ularning umummuxandislik kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Bu esa nafaqat dars berish, balki o'zlari ham ta'lim jarayonini innovatsion yangiliklarga moslashtira olishi uchun zarur. Bugungi kunda o'qituvchilarni tayyorlashda eng dolzarb tendensiyalardan biri kompyuter dasturlaridan foydalanish va modulli yondashuvni joriy etish hisoblanadi. Bu vositalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, individual talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda yangi texnologiyalarni an'anaviy ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda eng muhim yo'nalishlardan biri – kompyuter dasturlari va raqamli vositalardan samarali foydalanishdir. Bunday vositalar nafaqat talabalarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi, balki bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va samaraliroq o'rganish imkonini ham yaratadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali loyihalash, modellash va prototip yaratish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, AutoCAD, SolidWorks kabi CAD tizimlari, 3Dmax va ANSYS kabi 3D modellash dasturlari, shuningdek, Multisim va Arduino kabi dasturlash va robototexnika vositalari bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, raqamlashtirilgan ta'lim jarayoni o'qituvchilarga PDF 3D Kompas kabi vositalar yordamida o'quv materiallarini tayyorlash, masofaviy darslar o'tkazish, interaktiv platformalardan foydalanish va virtual laboratoriyalarni tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilar ushbu dasturiy mahsulotlar bilan ishlashni va ularni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilishni o'rganishlari zarur.

Albatta bunday katta hajimdagi va keng qamrovli ma'lumotlarni bo'lajak o'qituvchilarga qisqa muddatda o'zlashtirish onson bo'lmaydi. Shu sababli ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda modulli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. U o'quv jarayonini mustaqil qismlarga – bloklarga, modullarga ajratish orqali o'quv dasturlarini talabalarning individual ehtiyojlari va materialni o'zlashtirish darajasiga moslashtirish imkonini beradi. Bunday tizim o'qituvchilarga talabalarning shaxsiy ta'lim traektoriyalarini shakllantirish, bilimlarni baholash usullarini takomillashtirish va amaliy mashg'ulotlar orqali tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Modulli yondashuvdan foydalanish talabalarga nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish bilan birga, ularni amaliy jihatdan mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu esa bo'lajak texnologik ta'lim fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, modulli ta'lim talabalarni o'z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirishga va ta'lim jarayoniga



faolroq yondashishga o'rgatadi. Bunday yondashuv nafaqat umummuxandislik kompetensiyalarni rivojlantirishga, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni yechish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Texnologik ta'lim fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini yuksaltirish uchun ular nafaqat sohaviy bilimlarga ega bo'lishi, balki ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olishi ham kerak. Shu sababli, o'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish, yangi o'quv dasturlarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish lozim. Bunday islohotlarning samarali amalga oshirilishi ta'lim muassasalarining zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, modulli yondashuv va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'lajak texnologik ta'lim fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yuqori saviyaga olib chiqishga, ta'lim jarayonini esa yanada samarali va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishga yordam beradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyuter dasturlaridan foydalanish va modulli yondashuvni joriy etish bo'lajak texnologik ta'lim fani o'qituvchilarining umummuxandislik kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiyalar va ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish samarali ta'lim muhitini shakllantirishga yordam beradi, talabalarining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Biroq bu tendensiyalarni to'liq amalga oshirish uchun o'qituvchilarni zarur texnik bilimlar bilan ta'minlash va ularning pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Ular nafaqat o'z sohalari bo'yicha bilimga ega bo'lishi, balki zamonaviy ta'lim vositalari va metodlaridan samarali foydalanishni ham uddalay olishi kerak. Shuning uchun ta'lim muassasalari yangi yondashuvlarni joriy etishi va o'qituvchilarning umummuxandislik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Bu esa tez o'zgaruvchan texnologiyalar dunyosiga moslashuvchan, yuqori malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Новиков А.М. Педагогика: словарь системы основных понятий. – М.: М.: Издательский центр ИЭТ, 2013. – 268 с.
2. Haydarova Sayyora. Ta'lim mazmuni va uni kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish/Monografiya/ - Guliston: "Ziyo nashr-matbaa"XK. 2022-yil. 96 b.
3. Prince, M. J., & Felder, R. M. (2006). Inductive teaching and learning methods: Definitions, comparisons, and research bases. *Journal of Engineering Education*, 95(2), 123-138.
4. Salomova Ra'no Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning metodik tizimini takomillashtirish Ta'lim, fan va innovatsiya 1-son, ISSN 2181-8274 2024. 80-87 b.
5. Umarov A.Yu. (2023). Pedagogik amaliyotda talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda masofaviy ta'lim texnologiyalari. "Science and innovation" international scientific journal. volume 2 issue 2 february 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8002028>
6. Hakimova D.M. Maktab o'qituvchilarida innovatsion salohiyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi 13.00.01/ Hakimova Dildora Mashrabjonovna. – Toshkent 2024. – 197 b.



МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

О‘ЗБЕК OPERASI КЕЧА ВА BUGUN

Madaminova Rumiya

О‘zbekiston davlat konservatoriyasi musiqa san‘ati fakulteti
Opera tayyorlov kafedrasining 1-kurs magistr talabasi
rumiyarustamovna@icloud.com (33) 107 71 17
Ilmiy rahbar: dotsent Jamalova Dildora Abduvahobovna

Annotasiya. Ushbu maqola o‘zbek opera san‘atinig kundan kunga kamol topishi va shu orqali ijrochilik ko‘nikmalarini yosh avlodda shakllantirish haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Musiqa, opera, san‘at, drama

Abstract. This article provides information about the daily development of Uzbek opera art and the formation of performing skills in the younger generation.

Key words: Music, opera, art, drama

Аннотация: В данной статье представлена информация о ежедневном развитии узбекской оперы, формировании исполнительского мастерства у молодого поколения.

Ключевые слова: Музыка, опера, искусство, драматургия.

Biz bilamizki qadimgi san‘atlardan bo‘lmish musiqa inson hayotida o‘rni beqiyos bo‘lib o‘zining shakllanish jarayonidan hozirgi davrimizgacha insoniyatning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Musiqa san‘atining turli sohalarida vujudga keldi va rivoj oldi. Shular orasida vokal musiqasi ham musiqa janrlari ichida eng ommaviy xususiyatga ega bo‘lgan san‘at turi-bu opera hisoblanadi. Opera musiqasining asosiy omili ijrochilikdir. Opera – insonlar badiiy faoliyatining eng keng tarqalgan va qulay shakllaridan biri. Opera san‘ati jahon madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilarga ham emotsional, ma‘naviy-ahloqiy va intellektual jihatdan birdek ta‘sir qilib kelgan bo‘lsada o‘zbek musiqa janrida ham yetakchi o‘rinlarda joy egalagan. Opera — musiqali dramatik san‘at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo‘lib, o‘zida bir nechta san‘at turlarini mujassam etadi; unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at va raqs san‘ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog‘lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Operaning adabiy asosi — librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o‘z ifodasini topadi.

Hozirgi kunda Opera san‘ati kundan kunga rivojlanib kelmoqda va bunga bo‘lgan talabham oshib bormoqda ayniqsa o‘zbek operalarining teatr sahnalarida qayta qayta ijrosi ko‘zdi kuvontiradi. 30-yillar birinchi o‘zbek operalari S.Vasilenko va M.Ashrafiyning “Bo‘ron” operasi bilan R. Gliyer va T. Sodilovlarning “Layli va Majnun” operalari bo‘lgan va hozirgi kundaham bu opera sahnalarini yosh ijrohilar to‘monida O‘zbekiston davlat konservatoriyasida sahnalashtirilib kelinmoqda o‘zbek milliy koloritini, aynan o‘zbek operalarida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek operasi asosan chet el mumtoz musiqasi ta‘sirida vujudga kelganligi bizga boshqa millat ohanglarini o‘rganishimizga shuningdek milliy opera janrimizni kamol toptirishga turtki bo‘ldi. 20 – yillarga kelib o‘zbek operalari milliy repertuarlari ancha bo‘yidi bu birdaniga bo‘lmadi albatta dastlab barcha eski operalar ayniqsa o‘zbek var us hamkorligida yozilgan operalar qayta tahrirlandi mahalliy rus mavzudeki shu kabi kolloritdagi ohanglar milliy lashtirildi. Keyinchalik tomashabinlar uchun ajoyib operalar sahnalashtirildi bulardan “Dilorom”, “Shoir qalbi” (M. Ashrafiy), “Xamza” (S. Boboev), “Xorazm qo‘shig‘i” (M. Yusupov) va boshqa birinchi o‘zbek hajviy operasi “Maysaraning ishi” (S. Yudakov) bo‘lib, bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida qo‘yilgan. “Yoriltosh” (S. Boboev) birinchi o‘zbek bolalar operasidir.

Mustaqillik davri o‘zbek operalarida janr talqini butunlay o‘zgacha talqinga keldi operalarda xorlarning ijrosi, orkestrning mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi. Mazmunni talqin qilishda asosiy urg‘u milliy hamda umumbashariy ma‘naviy qadriyatlarni tarannum etishga,



murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Bu davrda o'zbek kompozitorlari opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an'analari zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog'lashga ahamiyat berdilar. Mavzu va badiiy saviyasi turlicha boyigan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilindi. Ba'zilar sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o'rin egalladi va bu jarayon hozirham davom etmoqda.

Opera musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida, partitura kiritilgan ariyalar, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansambllar, ommaviy xorlar, simfonik orkestr jo'rligida ijro qilinmoqda. Bunga misol keltirib Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur bolgan hajviy operalarni qatoridan munosib o'rin oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi: jahon mumtoz adabiyoti (N. Zokirovning Shakespeare tragediyalari asosida yaratilgan „Hamlet“ va „Makbet“), kabi operalar hozirgi zamon ijtimoiy muammolari (N. Zokirovning „Muxtoriyat“ opera-farsi, opera Abdullayevaning „Vafo“, F. YanovYanovskiyning „Orkestr“ operalari), kabi boy tarixga ega bo'lib opera janrini keyingi rivojini belgiladi ya'ni Yevropa madaniyatidam o'zbek opera rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Chunki mazkur operalarda ham opera "buffa"dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to'la - to'kisdir.

Ya'ni ohangdor ariyalar, vokal - ansambllar, ommaviy xorlar, ohangdor va "secco" (tez harakatda so'zlash) rehitativlar orkestr sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur'atda sahnada sodir bo'layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi. Bunday operalarni ijro qilib o'zbek opera saviyasini bizning mashhur honandalarimiz yuksaltirib kelishmoqda.

Asosiy vazifalardan biri sifatida hozirda opera janrini keyingi rivojini belgilab operaning mazmunini talqin qilishda asosiy urg'u milliy hamda umumba-shariy ma'naviy kadriyatlarni taran-num etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratilgan. Bu davrda o'zbek kompozitorlari Opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an'analari zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog'lashga ahamiyat bermoqda.

Kishilarni g'oyaviy - estetik jihatdan tarbiyalashda uning o'rnini muhim hisoblanganligi uchun Opera san'ati shunday bir san'at turi bo'lib, unda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib, undan yaxlit bir badiiy obraz yaratiladi. Bu san'at doim xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, har xil millatlarning milliy musiqa madaniyati rivojlanishida muhim ro'l oynab kelgani kabi o'zbek janrida ham tez rivoj topmoqda. Ayni vaqtga nazar tashlasak mashhur opera honandasi Ramiz Usmonov o'zbek operasini nafaqat o'zbekistonda rivoj topishiga balki Evropa sahnalarida yangrashi uchun harakatlar amalga oshirdi o'zining shogirdlari bilan Italiyada, Moskva, shahrida "Mening quyoshim" deb nomlangan yakkahon konsertini muhlislarga taqdim etdi bunda albatta Maysaraning ishi, Tohir va Zuhra, Layli va Majnun ariyalari ijro qilindi. Bugungu kunga kelib madaniyat san'at, xususan opera va balet san'atiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizning yosh operachilarimiz taniqli ustozlarimiz jahoning qator nufuzli tanlovlarda ishtirok etib o'zbek opera janrini namoish qilishga savor bo'lib kelishmoqda.

Bunga misol keltirib Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri direktori, O'zbekiston xalq artisti Ramiz Usmonov "Hamdo'stlik yulduzlari" mukofoti bilan taqdirlandi. Bugun, 12 dekabr kuni, Toshkent shahrida o'tkazilayotgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi XV Ijodiy va ilmiy ziyolilari forumi doirasida MDHning davlatlararo bosh mukofoti – "Hamdo'stlik yulduzlari" laureatlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. San'at, fan va ta'lim sohasidagi ulkan yutuqlari uchun a'zo mamlakatlarning bir nafardan vakiliga beriladigan mukofotni bu yil O'zbekistondan opera xonandasi Ramiz Usmonov qo'lga kiritdi. Bundan tashqari yurtimizda xalqaro opera san'ati festivallari o'tkazilib kelinmoqda.

Bu esa milliy operani rivojlantiribgina qolmay, xalqaro davlatlarni muloqotini mustahkamlashga imkonini berdi. Ayni damda Alisher Navoiy opera va balet teatrlarida o'zbek operalarini oziga xos bo'lgan an'anarni asrab avaylash uchun teatr o'z repertuarlariga o'zbek operasini qoshib kelmoqda. Milliy operalarimizni mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida yangi san'at maskanlari qurilib foydalanishga topshirildi va teatr sohasi uchun malakali mutaxassisliklarni tayorlashga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek opera musiqasi san'ati O'zbekiston mustaqilikka erishgan davrdan boshlab ommaviy san'at turi sifatiga aylangan deyarli barcha konsertlar o'zbek vokal ijrochilgisiz o'tmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki, opera janri xalqimiz tomonidan asrlar davomida shakllanib, sayqalanib rivojlantirilib kelinayotgan san'at turi sifatida qalbimizdan keng joy olgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Yuldasheva Aynisa Abdullayevna (2022). ROL I ZNACHENIYE XORA V UZBEKSKOY OPERE. Science and innovation,
2. Levik B. Chet el musiqasi tarixi (darslik) - Toshkent, 1981.
3. Problemi istoriko-stilevoy evolyusii. Novosibirsk, 1994.
4. GalaskaY. Zarubejnaya muzikalnaya literatura. I - IV t. M., 1967.
5. Druskin. Istoriya zarubejnoy muziki. IV t. M., 1963. 6. Keldish. Istoriya russkoy muziki. I - IV t. M., 1973.



RUS MUSIQASI TO‘LQINI QORQIZ OPERASI MISOLIDA

Uzoqboyeva Kamola Zafarjonovna

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi musiqa san‘ati fakulteti

Opera tayorlov kafedrasining 1-kurs magistr talabasi

kamolauzoqboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hamidova Marfua Azizovna

Annotasiya. Ushbu maqola rus opera san‘atinig kundan kunga kamol topishi va Rimski Korsakovning “Qorqiz” operasining rus opera me‘rosiga qoshgan hissasi haqida

Kalit so‘zlar: Musiqa, opera, san‘at, drama

Abstract. This article is about the development of Russian opera art and the contribution of Rimsky-Korsakov’s opera “The Snow Maiden” to the Russian opera heritage.

Keywords: Music, opera, art, drama

Аннотация. Статья посвящена развитию русской оперы и вкладу «Снегурочка» Римского-Корсакова в наследие русской оперы.

Ключевые слова: Музыка, опера, искусство, драматургия.

Biz bilamizki musiqa inson tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini, so‘zsiz ifodalaydigan tarjimon bo‘lib hattoki tarjimonsiz tushuniladigan san‘at turi sifatida gavdalanadi. Musiqa bu -insonlarni ezgulikka, millatlarni birlashtirishga, ularni ruhan yaqinlashtirishga xizmat qiladi.. Musiqiy san‘at asarlari san‘atning boshqa turlari kabi kishini hayot va olam haqida fikrlashga, unda estetik didni, taffakurini teran dunyoqarashni shakllashda, ongli mushohada qilishga, o‘zgalarga yaxshilik qilishga undaydi. Musiqa inson tuyg‘ularini kechinmalarini, orzu va umidlarini so‘zsiz ifodalasga yordam beruvchi asosiy vosita.

Musiqa insonlarni faqatgina ezgulikka, yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada rus opera janrining zamonaviylashi bilan bir qatorda rus kompozitori Rimskiy Korsakovning Qorqiz operasining ahamiyati haqida gap yuritiladi. Rus musiqasi juda katta merosga ega bo‘lib cherkov musiqali tugashi bilan bir qatorda opera va ko‘p ovozlik, yakka honandalik janrlariga bo‘lgan etibor kuchaytirildi.

Opera janriga etibor kam bo‘lgan edi chunki xor musiqasining obrosi baland bo‘lgan. Hususan ushbu opera san‘at turi ham asta sekinlik bilan murrakab san‘at turi darajasiga ko‘tarildi. Shu sababli rus operalar kompozitorlar tomonidan qarama qarshi fikrlar davrida yaratildi. Rus madaniyati arboblari, va ko‘plab kompozitorlar operalar sahna yuzini ko‘rish uchun behisob hissa qoshdilar. G‘arb davlatlari operalarining o‘zagi bo‘lganligi uchun ular ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmas edi. Ayni shu davrda Rimskiy Korsakov rus honandalik uslubini rivojlantirishga kirishdi va bo‘shqa kompozitorlarning operalari romans so‘zsiz qo‘shiq polifonik asarlarni targ‘ib eta bo‘shladi. Nikolay Andreevich Rimskiy –Korsakov rus musiqa madaniyatiga ulkan hissa qoshdi ya‘ni birinchi bo‘lib inqilobiy populizm davrida ijod qilgan bo‘lsa keyinchalik opera janrida yangi rus musiqa to‘lqinida ijod qila bo‘shladi.

Rimskiy Korsakovning ijodiy kuchi zamonaviylik bilan hamnafas bo‘ldi uning butun g‘ayri oddiy yoli faollik faoliyati, ijodiy maqsadlilik bilan shuhrat qo‘zondi. Rimskiy Korsakovning adabiy merosi juda qimmatli bo‘lib opera va simfonik asarlarining ko‘p sahnalarida xalq hayotining o‘ziga xos sezgir idrok etadi. Bunga birgina misol keltirib Qorqiz operasini aytishimiz mumkin. Aynan ushbu operada yuqori etnos, rus xalqining qiyofasi kompozitor tomonidan yoritib berilgan. Qorqiz operasi rus musiqasini tasvirlab beruvchi asar sifatida e‘tirof etilgan operaning yaratilishi dastavval A.N. Ostrovskiyning shu nomli ertak p‘essasi asosida yaratildi. Ostrovskiyning p‘esa-ertagi syujeti Rimskiy Korsakovning o‘zgacha istedodiga hayratlanarli tarzda mos keladi. Yangi syujetdan ilhomlangan Rimskiy-Korsakov Ostrovskiy bilan uchrashish uchun Moskvaga bordi va undan opera ustida ishlayotganda dramaga kerakli o‘zgartirishlar kiritish huquqi bilan o‘z asarini libretto sifatida ishlatishga ruxsat so‘radi.

Dramaturg kompozitorni juda mehribonlik bilan qabul qildi, unga matnni to‘g‘ri tasarruf etish huquqini berdi va hatto unga ertak nusxasini berdi. Rimskiy Korsakov biron bir asarni o‘qib hayolida musiqa yozar edi shu sababli bu operani yaratishdan oldin butun opera kartinkasiva tembri ko‘z oldiga keldi. Shu sababli bu opera musiqasi rus xalqi uchun harakterli bo‘lgan haqiqiy xalq temalari bilan boyitilgan. Qorqiz operasida lad abarotlari, xalq musiqasining melodik va tipik bo‘lgan sadolari



asosiy o‘rin egallaydi. Opera 1880 yilning yozida uzoq rus qishlog‘ida yaratilgan. Keyinchalik bastakor unga “Qorqiz” kabi osonlik va tezlik bilan bironta ham asar berilmaganligini aytdi. 1881 yilda opera tugallandi. Kelgusi yilning 29-yanvarida (10-fevral) Mariinskiy teatri sahnasida bo‘lib o‘tgan premyera juda muvaffaqiyatli bo‘ldi. A. N. Ostrovskiy ham operani ishtiyoq bilan qabul qildi: “Mening “Qor qizim” uchun musiqa hayratlanarli, men hech qachon unga mos keladigan narsani tasavvur qila olmadim va rus butparastlik kultining barcha she‘rlarini va bu birinchi qor-sovuq, keyin esa nazoratsiz ehtirosli ertak qahramonini shu qadar yorqin ifoda etdim.” Deb tarif berdi. Operaning voqeasi ertaknamo bo‘lib Berenditlarning avsonaviy mamlakatida bo‘lib o‘tadi.

Opera tarkibi asosan uzliksiz hisoblanadi. Asosiy nazarda tutilgan maqsad xalq ozodligini va farovonligini, go‘zalik, tabiiy tabiat qonunlariga bo‘lgan ishonch g‘oyalari operada ilgari surilgan. “Snegurochka” dagi optimistik mavjudlik, insoniyatning tabiat gonuniga bo‘ysunishdagi tantanasi bilan ifodalangan. Opera 1880-yil yozda, rus qishlog‘ida yaratila boshlagan. “Hech qaysi operani men “Snegurochka” operasi kabi engillik bilan va tez muddatda yaratmagioman”, deb yozadi Rimsky Korsakov. 1881 - yilda lopetà Filoyasiga Zetdi. KeyingByida, Mariinskiy atyahnesida namoyish etilgan “Snegurochka” muvaffaqiyatga uchradi. Opera namoyishidan ta’sirlangan A.N. Ostrovskiy “Mening Snegurochkamga bundanda ortiqroq va ajibroq musiqani kutmagan edim”, deb quvonchini ichiga sig‘dira olmagan. Rimskiy Korsakovning ushbu operasi badily katta hajmdagi monumental (hashamatlilik) opera sifatida kiritilgan. Mamlakatning asosiy opera sahnalarida “Qor qiz” spektakllari ayniqsa qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. “Nicholas Rerich mavzularidagi fantaziya” deb e‘lon qilingan D.Belovning Bolshoy Teatrning yangi sahnasidagi spektakli (2002) taqrizchi L. Dolgacheva tomonidan “dekorativ sarob” deb atalgan, chunki Rerich operani tinglab hayratda qolgan. spektakl ijodkorlari uning boshqa komponentlarini unutib qo‘yishdi. Taqrizchi ta’kidlaganidek, “uning “ishlab chiqarish”ida asosiy rol rejissyorga emas, balki rassomlarga berilishi kerak”¹. Prodyuser Alena Pikalova va yorug‘lik bo‘yicha dizayner Damir Ismagilov Rimskiy-Korsakovning akvarel ovozig‘a raqamli texnologiyalar yordamida tarjima qilingan og‘ir rasmlar bilan hamrohlik qilishdi bu esa rus musiqasida yangicha uslubga aylangan. Musiqa uning yuragi qanday erishini ko‘rsatadi; Rimskiy-Korsakov lirik ilhomining cho‘qqisi bo‘lgan yakuniy ariozoda uning qalbining iliqligi butun jozibasi bilan namoyon bo‘ladi. Ammo bu Qorqizning o‘lim vaqti. Bastakor tabiatning azaliy qonunlarining to‘g‘riligini aslo ta’kidlamaydi. Opera musiqali dramaturgiyasining rivojlanishi Qorqizni o‘limga olib kelgan bu qonunlar unchalik adolatli emasligini ko‘rsatadi: axir u faqat odam bo‘lishni xohlayotgani uchun aybdor. Shu bilan birga, “Qorqiz” musiqasida hech qanday estetik hayrat yo‘q; Bu inson hayoti va tabiatining ajralmasligini tasdiqlovchi ajoyib dostonidir. Opera kompozitorning keyingi ijodiga xos bo‘lgan ko‘plab ranglar va uslublarni o‘zida mujassam etgan. Bastakor folklor iqtiboslariga murojaat qilmasdan, bir necha istisnolardan tashqari, xalqdan farqlanmaydigan qo‘shiq va kuylar yaratadi.

Qo‘shiq aytish bosh qahramonlarning obrazlarini tavsiflaydi. Qorqizning o‘zi dastlab instrumental xususiyatga ega. Ammo uning qalbi odamlar bilan uchrashish uchun ochilganda, qo‘shiqchilik uning qismini egallaydi. Rimskiy-Korsakovning “Qorqiz operasi” jadal ijodiy jarayon) va yuksak mahorat samarasi bo‘lib ulgurdi. Partiyaning ohangdor va garmonik boyligi bitmas-tuganmas, orkestr liboslari rang-barangligida dalolat beradi. Teatr darhol ushbu operaga munosib sahna shaklini topa olmadi. Birinchi ishlab chiqarish, keyingilari kabi muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Aslini olganda, Qorqizning sahna hayoti Moskva xususiy operasida boshlandi, u erda birinchi marta asar unga munosib dekorativ ramkada paydo bo‘ldi (rassom V. Vasnetsov).

Shu tariqa 1885 yilda namoyish etilgan spektakl uzoq yillar davomida sahnani tark etmadi. Qorqiz” Rimskiy-Korsakovning eng she‘riy operasidir. Kompozitor buni o‘zining eng yaxshi ijodi deb hisobladi. “Qorqiz” o‘zining hayratlanarli darajada nozik, mehrli tarzda xalq hayoti rasmlari, qadimgi butparastlik marosimlari va xalq ertaklarining ajoyib tasvirlari bilan hayratga soladi. Xalq qo‘shiqlarining so‘nmas yangiligi va hikmatli soddaligi bilan sug‘orilgan opera musiqasi mayin lirika va gullab-yashnagan tabiatning bahoriy ohanglari bilan bo‘yalgan. Bu boyliklarning barchasini birlikka olib kelish “Qorqiz” sirini tashkil etadi, uni opera muallifining o‘zi barcha diagrammalar va tahlillarga qarab to‘liq ochib bergan. Rimskiy –Korsakov katta meros qoldirgan Lekin uning shaxsini eng to‘liq operalar nozil qilingan. Ular Rossiya xarakteriga, xalqning tarixi va hayot, uning she‘riy g‘oyalar va urf-odatlarini, milliy xususiyatlari uchun uning otashin sevgi ko‘rsatadi. Milliy rus operalari mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida yangrab kelmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ossovskiy, V. A. Izbrannyye statyi, vospominaniya / V. A. Ossovskiy. – Leningrad : Iskusstvo, 1961. – 120 s.
2. Asaf'ev, B. V. Izbrannyye statyi o muzыkal'nom prosvechenii i obrazovanii / B. V. Asaf'ev. – Leningrad : Muzyka. Leningrad. otd-niye, 1973. – 144 s
3. Rimskiy-Korsakov, N. A. N. A. Rimskiy-Korsakov i muzыkal'noye obrazovaniye: statyi i materialy / N. A. Rimskiy-Korsakov. – Leningrad : Iskusstvo, 1953. – 180 s.
4. Rimskiy-Korsakov, N. A. Polnoye sobraniye sochineniy: Literaturnyye proizvedeniya i perepiska. – Moskva, 1963. – T. 5. – 332 s.



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SULFIDLI BOYITMA VA ORALIQ MAHSULOTLARNI KUYDIRISHDA SUV BUG'I ISHTIROKI ISTIQBOLLARI

Nazarova Zinnura Saidaxmad qizi,
Yuldosheva Shahriyona Jamoliddin qizi
Telefon: +998(90)0929805
zinnuranazarova@gmail.com

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada rux keklariga qizdirilgan suv bug'i yordamida termik ishlov berish usuli yordamida gidrometallurgik qayta ishlashga tayyorlash ustida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijalari bayon etilgan bo'lib, bundan maqsad xomashyodan kompleks foydalanishga qaratilgan bir qancha qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasini yaratish.

Kalit so'zlar: suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish, flotoboyitma, tanlab eritish, kek, eritma, oltingurt, kuydirish, kuyindi, gazlar.

Ruxni ajratib olishda asosiy manba polimetall rudalarni flotatsion boyitishdan olingan rux boyitmasi hisoblanib tarkibi quyidagicha, %: Zn 48-60; Pb 1,5-2; Cu 1-3; Fe-3-10; S 30-38. Bundan tashqari rux boyitmasi tarkibida Au, Ag, Cd, Ga, Zn, Tl, Se, Te va boshqa metallar ham uchraydi. Rux boyitmasi qaynar qatlamli pechda kudirilib, kuyindi tarkibidagi ruxni eritmaga o'tkazish maqsadida sulfat kislotaning suvli eritmasi bilan tanlab eritiladi. Kuyindini tanlab eritish vaqtida uning tarkibidagi Cu, Cd, Fe, As kabi metallarning ham qisman eritmaga o'tishi kuzatiladi. Ruxning eritmaga o'tish darajasi 85-90%, kekning chiqishi 20-25% bo'ladi.

Rux keki kuyindini tanlab eritishdan qolgan qattiq qoldiq bo'lib uning tarkibi quyidagicha, %: Zn-18-23; Pb-4,8-11,7; Cu-0,25-1,28; Cd-0,08-0,2; Ag-170-425g/t; Fe-23-32; Au-1-2g/t; S_{um}-4,7-10. Hozirgi kunda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, rux konxonasida kek tarkibida qolgan ruxni ajratib olish maqsadida 1000-1100°C haroratda 35-55% koks qo'shilib velslash jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunda ruxli uchirma va tarkibida ko'pgina metallar bo'lgan klinker hosil bo'ladi. Velslash jarayoni kamchiliklari:

- qimmatbaho va tahchil bo'lgan koks sarfining yuqoriligi;
- jarayonning yuqori haroratda kechishi;
- klinkerni qayta ishlashning samarali texnologiyasi yo'qligi sababli boshqa qimmatbaho metallar (Au, Ag, Pb, Cu va b.) ni ajratib olinmasligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib rux keklari tarkibidan barcha metallarni kompleks ajratib olish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Buning uchun rux keklariga suv bug'i ishtirokida termik ishlov berildi. Jarayonni samaradorligini baholash uchun olingan kuyindi sulfat kislotasida tanlab eritildi. Tanlab eritishda sulfat kislotasini qo'llash texnologik va iqtisodiy jihatdan ma'qul bo'lib, bunda hosil bo'ladigan rux sulfat eritmasini rux korxonasi aylanma eritmasiga qushib yuborish mumkin bo'ladi.

Dastlab, rux keklaridan metallarni ajratib olish darajasini suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish jarayoni haroratiga bog'liqligi o'rganildi. Tajribalar 400°C dan 800°C haroratgacha o'tkazildi. Tajriba natijalariga asosan rux keklariga suv bug'i ishtirokida 600°C haroratda termik ishlov berib olingan kuyindini sulfat kislotasida tanlab eritish rux va misni eritmaga o'tish darajasini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Haroratni 600°C dan yuqori bo'lishi rux va misni eritmaga o'tish darajasini ko'p oshishiga olib kelmaydi, ammo keraksiz qo'shimcha hisoblangan temirni eritmaga o'tishi ko'payadi. Shuning uchun rux keklariga suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish jarayoni uchun optimal harorat 600°C bo'lishi aniqlandi.

Rux keki tarkibidagi metallarni eritmaga o'tish darajasini suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish vaqtiga bog'liqligini o'rganish maqsadida 0,5; 1; 1,5; 2; 2,5 soat mobaynida tajribalar olib borildi. Optimal haroratda suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish vaqtining ortishi bilan kuyindi massasi kamayishi hamda rux va boshqa metallarning kuyindidagi miqdori ortishi kuzatiladi. Olingan



natijalar asosida va iqtisodiy jihatni hisobga olgan holda rux keklariga suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berishning optimal vaqti bir soat ekanligi aniqlandi. Rux keklariga suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berish natijasida olingan kuyindini sulfat kislotali tanlab eritish yuzasidan bajarilgan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berilgan rux keklarini sulfat kislotali tanlab eritish natijalari
(Tajriba sharoiti: $C_{H_2SO_4}=100g/l$, $\tau=1$ soat, $t=60^{\circ}C$, $Q:S=1:4$, $\gamma_{kek}=64\%$)

№	Metall	Dastlabki kekdagi miqdori, %	Kuyindidagi miqdori, %	Eritmadagi miqdori, g/l	Qoldiq kekdagi miqdori, %	Eritmaga ajratib olish darajasi, %
1.	Zn	22,3	24,8	58	2,2	94,3
2.	Cu	3,68	3,94	8	1,1	82,2
3.	Ag	212*	221*	6,8**	274,2*	12,4
4	Au	0,9*	0,98*	-	1,62*	-
5	Fe	17,4	18,2	8,4	23,2	18,2

*Nodir metallarning qattiq fazadagi miqdori g/t da berilgan.

**Kumushning eritmadagi miqdori mg/l da berilgan.

O‘tkazilgan tajriba natijalariga asosan suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berilgan rux keklarini sulfat kislotali tanlab eritish natijasida ruxni 94,3% misni 82,2% ajratib olish mumkinligi aniqlandi. Tanlab eritishdan qoladigan qoldiq tarkibida kumush 274,2 g/t, oltin 1,62 g/t bo‘lib, oddiy sianlash jarayonlari yordamida nodir metallarni ajratib olish imkoniyati tug‘iladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari rux keklarini suv bug‘i ishtirokida termik ishlov berish usuli bilan samarali qayta ishlash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. А.Р. Арипов, Ф.Э. Ахтамов, А.А. Саидахмедов, Б.Р. Вохидов Разработка технологии обогащения вермикулитовых руд караузякского месторождения. Горный журнал Казакстана. №2.2022. 33-39стр.

2. Aripov A.R., Saidaxmedov A.A., Axtamov F.E. «Vermikulit rudalarini boyitib turli mahsulotlar olish imkoniyatlari //«O‘zbekiston konchilik xabarnomasi».4(87).Navoiy–2021y–73b.



TEXNOGEN CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Yuldosheva Shahriyona Jamoliddin qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Телефон: +998944850909

talant1805@mail.ru

Annotatsiya

Texnologik taraqqiyot insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi, ammo bu jarayon atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, texnogen chiqindilarning ko'payishiga olib kelmoqda. Ushbu chiqindilarni samarali qayta ishlash ekologik muammolarni hal etish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida mazkur mavzuning dolzarbligi, muammolari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Barchamizga ma'lumki tabiiy manbalarni qazib olish ekologik jihatdan zararli bo'lishi mumkin, shu bois texnogen chiqindilardan foydalangan holda resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun samarali yechim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Texnogen chiqindilar turlari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyati, muammolar va yechimlar

Texnogen chiqindilar turlari:

1. Sanoat chiqindilari - ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'lgan chiqindilar. Masalan, metallurgiya zavodlari chiqindilari, kimyo va energetika sanoati mahsulotlari.

